

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy*  
***JURNAL***

**2023-yil 5-6-son**

**Urganch-2023**

**Bosh muharrir:**

*M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas’ul kotib:**

*U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir hay’ati:**

*Z.Do ‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O’razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.I.Yo ‘ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*E.Ro ‘ziyev – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*D.A.O’razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.*

*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.*

*M.J.Jumaniyazov – Texnika fanlari doktori, professor.*

*S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*O‘.I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.*

*Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.*

*B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).*

*R.Y.Ro ‘ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).*

*B.Rasulov – Tarix fanlari doktori, dotsent (AnDPI rektori).*

*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*

*H.H.Tadjiev – Turkologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog ‘iston).*

*J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*

*I.S.Yusupov – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

*D.Y.Batirov – Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

*J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*B.B.Nurullayeva – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*J.B.Davletov – Falsafa fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD).*

*M.S.Abdullayev – San’atshunoslik fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD).*

**ISSN**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.  
№3-4 (2), Urganch innovatsion universiteti, 2023-yil.



## MUNDARIJA:

### TARIX

|                                                                                                                                                |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>M.Eshmurodov.</b> Xorazm tarixini o‘rganishda muhim manba .....                                                                             | 4  |
| <b>M.Mahmudov.</b> Xorazm vohasi tarixi fidoyisi .....                                                                                         | 9  |
| <b>M.G‘affarov.</b> O‘rta osiyo xalqlarining harbiy san’ati tarixiga oid ba’zi bir mulohazalar (eng qadimgi davrdan II ming yilliklarga). .... | 13 |
| <b>U.Bekmuhammad.</b> Zamaxshariyning zahmatli mehnati va boqiy merosi. ....                                                                   | 17 |
| <b>S.Nurmetov, N.Allayarov.</b> Xorazm vohasining ibtidoiy madaniyat tarixi sahifasiga doir ba’zi mulohazalar. ....                            | 24 |
| <b>D.Babajanova.</b> Kasb-hunar bilan bog‘liq marosimlarlarda ustoz-shogird munosabatlari tahlili. ....                                        | 28 |

### FILOLOGIYA

|                                                                                                     |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Z.Sharipova.</b> Xorazm shevalarida variantdorlikni hosil qiluvchi ayrim so‘zlar-terminlar. .... | 32 |
| <b>A.Oydin, U.Bekmuhammad.</b> Xorazm folklorshunoslarining darg‘asi edi. ....                      | 36 |

### IQTISODIYOT

|                                                                                                     |    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Y.Bekchanov.</b> Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi munosabatlarini takomillashtirish. .... | 43 |
| <b>J.Xusainov.</b> Mintqa turizmi salohiyatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari.                  | 47 |
| <b>Sh.Axmedov.</b> Chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirishning nazariy asoslari.                    | 53 |

### SAN’ATSHUNOSLIK

|                                                                              |    |
|------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>S.Sobirov.</b> “Xorazm musavvirlari ijodida Pahlavon Mahmud siymosi. .... | 59 |
|------------------------------------------------------------------------------|----|

### PEDAGOGIKA

|                                                                                                      |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Ch.Sabirova, A.G‘aniyeva.</b> O‘qituvchi faoliyatida kognitiv texnologiyalardan foydalanish. .... | 68 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

TARIX**XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA MUHIM MANBA**

**Madamin  
ESHMURODOV**

**Urganch  
innovatsion  
universiteti  
rektori,  
filologiya fanlari  
nomzodi, dotsent**

**UO'K 574.511**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asari va uning Xorazm tarixini o’rganishdagi muhim o’rni haqida so‘z yuritiladi.

**Аннотация:** В статье рассматривается произведения Муниса и Агахи “Фирдавс ул-икбол” и его важное значения в истории изучения Хорезма.

**Annotation:** In this article deals The work “Firdavs al-Iqbol” by Munis and Agahy it’s role in the study of the history of Khorezm.

**Kalit so‘zlar:** Mirxond, Ravzat us-safo, Abulg‘oz, Eltuzarxon, H. Vamberi, A. Kun.

**Ключевые слова:** В статье рассматривается произведения Муниса и Агахи “Фирдавс ул-икбол” и его важное значения в истории изучения Хорезма.

**The keywords:** Mirxond, Ravzat us-safo, Abulgozi, Eltuzarxon, H. Vamberi, A. Kun.

Xorazm – eng qadimiy madaniyat markazlaridan biridir. Dunyo fani rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan olimlar, tarixnavis allomalar yetishgan bu zaminda xonlar hukm surgan davrlarda milliy tarixnavislik maktabi shakllandi. Ular tomonidan yaratilgan asarlarda xonlar tarixini yoritish barobarida bu o‘lka xalqlari xayoti, xonlikdagi madaniy-iqtisodiy, siyosiy ahvol haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Olimlar va tarixchilar tomonidan Xorazm tarixini o’rganish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ko‘plab ilmiy monografik asarlar yaratildi. Shu bilan birga, hali qator qo‘lyozma asarlar borki, Xorazm tarixini yoritishda ularni o’rganish, ularda keltirilgan daliliy malumotlardan to‘liq foydalanish va nashr qilish zarurdir. XIX asrda yashab ijod etgan atoqli o‘zbek shoirlari va mashhur tarixnavislardan Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiy Xorazm tarixini yozish bilan bir katorda shu sohada ma’lum maktab xam yaratdilar.

Ularning “Firdavs ul-iqbol” asari Xiva xonligi tarixini yoritishga bag‘ishlangan muhim asarlardan biridir.

Munis o‘z zamonasida juda ham iste’dodli shaxslardan edi. Buni uning atrofidagilari ham tan olgan. 1805-yili o‘rtalarida Eltuzar unga o‘z sulolasi tarixini yozishni buyuradi. Munis o‘zining tarixiy asarini “Firdavs ul-iqbol” (Baxt jannati) deb nomladi. Eltuzar vafotidan so‘ng u yozishni to‘xtatadi va Muhammadrahimxon I buyrug‘i bilan uni yana davom ettiradi. Keyingi tanaffus

1819-yili o‘rtalarida boshlandi. Muhammadrahim I Munisga Mirxonning “Ravzat us-safo” asarini turk tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis mazkur asarning birinchi daftari, ikkinchi daftarining bir qismini (Badr urushigacha) tarjima qilishga ulgurdi. 1825-yilda Muhammadrahim I vafot etadi. Yangi xon Ollohquli ham unga tarjimani tugatishini buyuradi. Munis tarjimonlikka shunday berilib ketadiki, “Firdavs ul-iqbol” asarini davom ettirishga ulgurmadi (asardagi voqealar 1812-yil 5-martgacha berilgandi, xolos).

1829-yilning iyunida Munis xolera epidemiyasi natijasida vafot etadi. U Ollohqulxon qo‘smini bilan Xuroson yurushida qatnashib, undan qaytayotganda Lutfobod shahri yaqinida shu kasallikka chalindi va yo‘lda halok bo‘ldi. “Firdavs ul-iqbol” va “Ravzat us-safo” asarining tarjimasi notamom qoladi. Munis ishlarini uning shogirdi va jiyani (ukasining o‘g‘li) Ogahiy – Muhammadrizo ibn Erniyozbek davom ettiradi. Ogahiy 1809-yil 16-dekabrda tavallud topgan.

Shermuhammad Munisning tarixiy asari “Firdavs ul-iqbol” qadim zamonlardan boshlab, 1825-yilgacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Munis bu asarini Sharq tarixchilarining an’anasiga muvofiq hamd bilan boshlagan. So‘ngra o‘z hayoti va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma’lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishga kirishgan. Ammo Munis bu asarini yozib, tamomlay olmagan (1829-yilda vafot etgan). U qadim zamonlardan boshlab Muhammad Rahimxon I hukmronligining 7-yili (1813-yilgacha) gacha bo‘lgan voqealarni yozish bilan to‘ldirgan.



voqealarni yozishga ulgurgan, xolos. Shu joyidan boshlab asarning chala qolgan qismini Ogahiy (1809-1874) davom ettirgan. U 1813-yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan “Firdavs ul-iqbol” asarini shu joydan boshlab Xorazmda sodir bo‘lgan voqealarni yozish bilan to‘ldirgan.

“Firdavs ul-iqbol” asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qadim davridan boshlab, Muhammadrahimxon I (1806-1825) davrigacha bo‘lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon etiladi. Munis qadim zamonlardan boshlab Abulg‘ozixon davrigacha Xorazmda bo‘lgan voqealarni bayon etarkan, Abulg‘ozzi davridagi Xiva va Buxoro xonliklarining o‘zaro munosabatlariiga ham to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, XVIII asr va XIX asrning birinchi choragi, ya’ni Qo‘ng‘irot sulolasi vakillarining Muhammadamin inoq (1755-1790), Avaz inoq (1806-1825)larning Xorazmda hukmronlik qilgan

yillaridagi tarixiy voqealar bayon qilingan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ayrim ma'lumotlar ham berilgan.

Munis asarida Eltuzarning birinchi to'rtta g'alabasini bayon qiladi. Bular: qoraqalpoqlarga qarshi yurish; yovmutlarning mag'lubiyati, Xo'ja eli mudofaa devorining buzib tashlanishi; Qo'ng'irotning bosib olinishi. Asar muqaddima, beshta bob va xotimadan iborat. Birinchi bobda Odam atodan Nuh payg'ambar avlodigacha bo'lgan hodisalar zikri; ikkinchi bobda Yofasdan qo'ng'irot sho'basigacha bo'lgan mo'g'ul hukmdorlar zikri; uchinchi bobda Quralas (Chingiziylardan to Abulg'ozi ibn Yodgorgacha) davrida sodir bo'lgan hodisalar zikri; to'rtinchida qo'ng'irot Eltuzarxonning ota-bobolari haqida va beshinchi bobda Eltuzarxonning tug'ilishidan boshlab to asarning yozilib, tamom bo'lguniga qadar bo'lgan davr; xotimada avliyolar, ulamo, amirlar, beklar, shoir va donishmandlar, hunarmandlar va boshqalar haqida yozmoqchi bo'lgan.


Munis Eltuzar davri (beshinchi bob)ni ikki faslga bo'lmoqchi bo'ladi. Birida Eltuzar, ikkinchisida Muhammad Rahimxon davrini bayon qilmoqchi bo'ladi. Xotimani Munis yozib ulgurmaydi.

Abulg'oziy va Mirxondning asari Munis asarining birinchi, ikkinchi, uchinchi bobining ikkita qismi uchun manba sifatida xizmat qilgan (asarda ulardan to'rt marta "Ravzat us-safo"ga va ikki marta "Shajarayi turk"ka havola bor). Keyingi boblarini Munis "Firdavs ul-iqbol"da safaviylar davri tarixnavisligi va Nodirshoh davri istoriografiyasiga tayanib yozgan<sup>1</sup>.

Munis asarida Muhammadamin inoq, Avaz inoq va Eltuzarxon davrlaridagi asosiy voqealar alohida nomlanish bilan qat'iy xronologik tarzda berilgan. Muhammadrahim davri esa uning julusidan boshlanadi va yilma-yil bayon qilinib, asarning yarmidan ko'prog'ini tashkil qilgan (avtografdagи 242<sup>a</sup>-611<sup>a</sup> varaqlar). Shunda Munisning Abulg'oziy vafotigacha bo'lgan tarixi boshqa manbalar asosida yozilgani ma'lum bo'ldi, qolgan kattaroq qismi esa ta'kidlaganidek, original qismini tashkil qiladi. Munis o'z davri tarixi bayoniga yaqinlashgan sari yozma manbalarning yo'qligidan nihoyat aziyat chekkanini asarida ta'kidlab o'tadi. Uning shikoyati Eltuzar davridan oldingi tarixga tegishlidir. Munis Xorazmda hukmronlik qilgan chingiziylar tarixini Abulg'oziy ibn Arabxonidan keyin birov yozmaganini, Eshmuhammadbiy va Muhammadamin inoq g'alabalarining hech bir joyda qayd etilmaganini afsus bilan ta'kidlaydi va "bu roqimi bebizot" (o'zini tilga olib) o'z iste'dodi madadi ila o'sha davr voqealarga doir ma'lumotlar to'plana olmay ancha vaqt asarini yozolmaganini ham aytib utadi. Biroq u qo'ng'irotlar davriga oid "Tarixi olamoroyi Abbosi" va Hasani Rumlu asarlaridan foydalanganini ko'rish mumkin. Bu asarlardan oldin olingan

<sup>1</sup> Munis safaviylar davriga oid manbalardan "Ahsan at-tavorix" va "Tarixi olamoroyi Abbosi" dan foydalanganini ma'lum bo'ladi – M.E..

ma'lumotlar Munis tomonidan qayta ishlangan va to'ldirilganini uning avtografidagi ilovalaridan ko'rish mumkin<sup>1</sup>. Shu ilovalar va hoshiyalardan Munis bir qancha boshqa manbalardan ham ma'lumot olganini bilinib olish mumkin<sup>2</sup>.



beriladi.

“Firdavs ul-iqbol” asarining beshinchи bobida Munis tarixiy voqealarni ancha erkin va mufassal bayon qilishga harakat qilgan. Bu tabiiy, chunki bu davr tarixining guvohi va faol ishtirokchisi Munisning o'zi bo'lgan. Munis o'zi ishtirok etgan voqealarning birinchi sanasi sifatida 1802-yil mart oyini tilga oladi. Shu bobning ko'pgina qismlari voqea ishtirokchilari nomidan yozilgan. Bunday holat asarning olti joyida, ya'ni guvohlar tilidan olingan ma'lumot (ular yozma bo'lishi ham mumkin edi) sifatida ko'rsatilgan. Biroq bobning mazmunidan muallifning guvoh axborotchilari bundan-da ancha ko'pligini bilib olish mumkin. Munis o'z asarining mazkur bobini arxiv hujjatlari asosida yozilgani ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, u xon va uning qo'shini bilan ko'p joylarda bo'lgani bilan, ba'zi joylarda sodir bo'lgan voqealarni shaxsan ko'rmagan edi. Shunda u boshqa ishtirokchilarining hisobotlari, esdalik va nomalaridan foydalangan. Munis asarining uch joyida hujjatlardan ham nusxalar bergen. Bundan tashqari, Munisning o'z kundaligi bo'lishi ham mumkinligini Y.Bregel taxmin qiladi.

Munis ishini davom ettirgan Ogahiyning yozma manbalardan foydalanish imkoniyati ko'proq bo'lgan. Ayniqsa, u xon arxivi materiallaridan keng

<sup>1</sup> Munis avtografining 47<sup>b</sup>, 57<sup>a</sup> varaqlaridagi izohlar bundan dalolat beradi.

<sup>2</sup> Ular haqida Yu. Bregel ham ma'lumot bergen. Qarang: Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbol: History of Khorezm. – B. XXXIV va keyingilari.

<sup>3</sup> Munis. Firdavs ul-iqbol. – B.51.

foydalanganini “Firdavs ul-iqbol”dan tashqari, boshqa tarixiy asarlarida ham ko‘rish mumkin.

Munis va Ogahiy tarixiy asarlarining asosiy xususiyati ularda keltirilgan voqealar sanalarining aniqligidir. Bu esa O‘rta Osiyo tarixnavisligida bu asarning alohida ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi.

Asarda she’riy bezaklar ham keng berilgan. Munis jami 2915 misradan iborat 683 she’riy parcha beradi. Ogahiy esa 514 misradan iborat 84 she’riy parchalarni kiritgan. She’riy parchalar Mullo Sayyidoyi Buxoriy, Nizomiy, Sa’diy, Firdavsiy kabi shoirlarga tegishlidir. Shuningdek asarda Munis va Ogahiyning masnaviy va qasidalari ham bor.

Yevropada “Firdavs ul-iqbol” mualliflari Munis va Ogahiy haqidagi birinchi ma’lumotni H.Vamberi bergan<sup>1</sup>. Biroq uning ma’lumotlari biroz chalkash ekanini Y.Bregel ko‘rsatadi. H.Vamberi 1863-yili Xivada kelganda Munis vafot etgan edi. Ogahiy ham Vamberi bilan uchramagani aniq. H.Vamberi xivaliklardan olingan ma’lumotlarni yig‘ib olib, Munisga nisbat berilgan juda bir zaif she’rni nemischa tarjimasi bilan keltirgan. Shu axborotida H.Vamberi Munis va Ogahiy tarixiy asarlaridan xabardor ekanini bildirib, yaqin kelajakda ularning adabiy merosidan namunalar tarjima etishni rejalashtirayotganini aytgan.

Keyingi ma’lumot Aleksandr Kunga tegishli. 1873-yili Xiva xoni saroyining talon-torojida ishtirok etgan A.Kun 300 jild qo‘lyozma kitoblar orasida Munis va Ogahiy kitoblarini ham olgan. U zudlik bilan “Turkestanskiye vedomosti”da shu haqida axborot berib, Munis asarining oxirgi bobu mazmuni va Ogahiy asarlari haqida ma’lumot bergan<sup>2</sup>. 5-dekabr 1873-yili A.Kun Rossiya jug‘rofiy jamiyatida ham ma’ruza qilib Munis va Ogahiyning xronikalari haqida ma’lumot bergani ma’lum.

Munis va Ogahiy tomonidan bitilgan “Firdavs ul-iqbol” asarining to‘qqizta nusxasi mavjud bo‘lib, bu nusxalar asosan Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari institutida 571<sup>a</sup> (590<sup>0a</sup>), Y6 VIII, raqamlar ostida, O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 5364/1, 821/1, 9979, 5071, 7422, 275/1 raqamlari ostida hamda Xelsinkida<sup>3</sup> saqlanadi.

Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarida Xiva xonligining ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xonlikning siyosiy tarixi juda mufassal berilgan. Bu asar Xorazm tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

<sup>1</sup> Vamberi A. Puteshestviye po Sredney Azii. Spb., 1865.

<sup>2</sup> Kun A. Zametki o Xivinskom xanstve. // Turkestanskiye vedomosti. 1873. – № 40. – S. 158.

<sup>3</sup> Xelsinkidagi nusxa haqida qarang: Halen H. Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature. London–Malmö, 1979. – P. 100.

**TARIX****XORAZM VOHASI TARIXI FIDOYISI**

**Madrim  
МАHMUDOV**

**Tarix fanlari  
doktori, professor**

**UO'K 520.35**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm tarixining teran tadqiqotchilaridan biri, arxeolog S.P.Tolstovning hayoti va faoliyati, shuningdek, ilmiy asarlari tadqiq qilinadi.

**Аннотация:** В данной статье исследуются жизнь и деятельность археолога С.П.Толстова, одного из глубоких исследователей истории Хорезма, а также его научные труды.

**Annotation:** In this article, the life and activities of archaeologist S.P. Tolstov, one of the deep researchers of the history of Khorezm, as well as his scientific works are explored.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, arxeologiya, etnografiya, qal'a, ekspeditsiya.

**Ключевые слова:** Хорезм, археология, этнография, крепость, экспедиция.

**The keywords:** Khorezm, archeology, ethnography, fortress, expedition.

Men Bartold, yo Bertels zo'r dahosidan,  
So‘z ochsam, qo‘silgay har bir talaba.  
Ko‘hna Xorazmni qumdan turg‘azib,  
Na buyuk Tolstov quchgan g‘alaba!

**(Omon Matjon)**

Xorazm vohasi xalqlarining uzoq o‘tmishini o‘rganishdek murakkab va sharaflı ishga ulkan hissa qo‘silgan olimlar orasida so‘zsiz akademik Sergey Pavlovich Tolstovning alohida xizmatlari bor. U o‘zining salkam yarim asrlik umrini Orololdi hududidagi noyob tarixiy yodgorliklarni o‘rganishga bag‘ishladi va bebafo ilmiy merosi sifatida Xorazm madaniyatini dunyo xalqlariga tanitdi.

“Sergey Pavlovich Tolstov 1907-yil 25-yanvarda Sankt-Peterburgda harbiy ziyyoli oilasida dunyoga keldi. Yetti yoshligida otasi va 12 yoshligida onasidan yetim qoldi hamda bolalar uyida tarbiyalandi. Sho‘rolar tuzumi o‘rnatilgach, 15 yoshligida bezorilarga qarshi kurash favqulodda otryadi (CHON)ga yozildi. Keyinchalik esa, 1930-yilda Moskva davlat universitetining tarix fakultetini tugatdi”[1].

Hali talabalik vaqtidan Moskvadagi tarix muzeyida kichik ilmiy xodim lavozimida ishlay boshlagan S.P.Tolstov 1929-yilda Xo‘jayli va Ko‘hna Urganchda etnografik ma’lumotlarni to‘plashda qatnashdi. Olimning shogirdi,

taniqli etnograf, professor Iso Jabborovning guvohligicha, ustozи: “Biz qadimgi Xorazm darvozasi ostonasida, noma'lum o't mishga olib boradigan yo'lning boshida turibmiz”, – degan edi.



Xorazm tarixini o'rganishga bo'lgan ishtiyоq S.P.Tolstovda Rossiya moddiy madaniyat tarixi davlat akademiyasi aspiranturasida o'qib yurgan vaqtida yanada kuchaydi. 1932 va 1934-yillarda Xorazmga qilgan safarlari chog'ida vohaning boy tarixi, madaniyati, aholisining tarkibi kam o'rgанилганини dildan his etdi va bu ishga kelajakda o'z umri hamda mehnatini sarfladi.

“1937-yilda Moskva davlat universiteti etnografiya kafedrasi mudiri S.P.Tolstovning tashabbusi va Sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi rayosati qaroriga asosan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi (XAEE) tashkil etildi. Keyingi 32 yil davomida ekspeditsiyaga boshchilik qilgan S.P.Tolstov sehrli tarix tilsimlarini ochishga astoydil intildi. Dastlab u A.I.Trenojkin, Y.G'.G'ulomov,

M.V.Voyevodskiy va boshqalar ishtirokidagi 14 kishilik kichik arxeologik otryad bilan Quyi Amudaryo havzasidagi voha, cho'l va qirlarni ot, avtomobil va samolyotda tekshirib chiqdi. Natijada tadqiq qilinishi zarur bo'lgan yodgorliklar ro'yxatidan Qal'aliqir, Tuproqqal'a, Ayozqal'a, Burgutqal'a, Uyqal'a, Qumbosganqal'a, Teshikqal'a, Yakka-Parson, Qavatqal'a, Guldursunqal'a kabi 250 dan ortiq qadimgi qal'a va istehkomlar, shahar va qishloqlar, sug'orish inshootlari o'rinn oldi”.[2]


1941-yilda S.P.Tolstov ko'ngilli xalq lashkarlari safida Moskvaga intilayotgan fashistlarga qarshi Yelna, Mojaysk ostonalaridagi janglarda qatnashdi. Shalimovo temiryo'l stansiyasi yaqinidagi jangda og'ir yarador bo'lgan va evakogospitalda davolanib chiqqan S.P.Tolstovni 1942-yilda Sobiq Ittifoq Etnografiya institutiga direktor qilib tayinlashdi. Shu yili u doktorlik dissertatsiyasini yoqladi va Moskva davlat universitetining etnografiya kafedrasi mudiri lavozimida pedagoglik faoliyatini ham davom ettirdi.

1948-yilda S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm” va “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” nomli kitoblari bosmadan chiqdi. Olimlar va keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan bu asarlarning birinchisi 1949-yilda Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

XAEE saflari yildan yilga kengayib, ish hajmi ham ortib bordi. Ekspeditsiya a'zolari orasida O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'istonlik yosh tadqiqotchilarning soni ko'paydi. Ekspeditsiya a'zolari qatorida minglab kilometr yo'l bosib, ko'pgina qal'a va istehkomlar, sug'orish inshootlarining tarixini o'rgangan tadqiqotchilar fan nomzodligi va doktorlik dissertasiyalari uchun ma'lumotlarni to'pladilar. Yosh izlanuvchi olimlarga S.P.Tolstov bilan bir qatorda uning tajribali shogirdlari T.A.Jdanko, B.V.Andrianov, Y.A.Rapoport, Y.E.Nerazik, M.A.Itina, G.P.Snesarev kabi olimlar g'amxo'rlik qildilar. Kelgusida olimlar qatoridan munosib o'rin egallagan etnograflar Sobir Kamolov va Iso Jabborov kabi olimlar ilm sohasidagi dastlabki qadamlarini S.P.Tolstovning shogirdlari sifatida qo'ydilar.

1952-yildan boshlab S.P.Tolstov tahriri ostida XAEE ilmiy ishlari to'plami va hujjatlari nashr qilina boshlandi. Endilikda 20 jilddan ortiq bo'lgan ushbu noyob to'plamlar Xorazm vohasi tarixini o'rganish uchun qimmatbaho manba hisoblanadi.

1956-yilda S.P.Tolstov Xorazm arxeologiya va etnografiya xaritasini tuzdi. Keyingi yillarda u yirik ilmiy asarlarni yozishni davom ettirdi. Olimning "Orolbo'yi skiflari Xorazmda" (1960) risolasi, "Oks va Yaksartning qadimgi



irmoqlari bo'ylab" (1963) va "Qo'yqirilganjal'a – qadimgi Xorazm madaniyatining yodgorligi" (1967) kitoblari voha tarixi sahifalarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirdi. Bundan tashqari, S.P.Tolstov 1956-1966-yillarda "Советская этнография" ilmiy jurnalining bosh muharriri, mamlakatda ilk bor nashr qilinayotgan ko'p jildli "Jahon xalqlari" nomli qomusiy kitobning mualliflaridan biri va ushbu jurnalning ilmiy muharriri vazifasini ham bajardi. Olimning ilmiy merosini 400 ga yaqin nashr qilingan ishlar tashkil qiladi.

Yirik tadqiqotchi olim, mehribon ustoz, murabbiy, fidoyi inson S.P.Tolstov 1976-yil 28-dekabrda Moskva yaqinidagi dala hovlisida og'ir kasallikdan so'ng vafot qildi. Uning dunyo olimlari orasida o'ziga xos yuqori o'rni bor edi. U Buyuk Britaniyadagi London universitetining Arxeologiya instituti, Kembrij va Oksford universitetlari, Parij, Rim, Bombey olimlari va jamoatchiligi oldida ma'ruzalar qildi. S.P.Tolstov

Xalqaro Antropologiya va etnografiya fanlari uyushmasi vitse-prezidenti, GDR Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, Buyuk Britaniya qirolligi Antropologiya olimlari jamiyati faxriy a'zosi edi.

1953-yilda Sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi muxbir a'zoligiga saylangan S.P.Tolstovning xizmatlari O'rta Osiyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham yuqori baholandi. U O'zbekiston Fanlar akademiyasi faxriy a'zosi (1956), "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi", "Tojikiston va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" faxriy unvonlariga sazovor bo'ldi. Olimning mehnati "Mehnat Qizil Bayroq" va "Hurmat belgisi" ordenlari hamda ko'plab medallar bilan taqdirlandi.



Akademik S.P.Tolstovning buyuk asarlari va tabarruk siymosi uning ko'plab shogirdlari hamda minnatdor avlodlar qalbidan abadiy o'rinn oldi. Xorazm tarixining yo'qolib ketayotgan sahifalarini qayta tiklashni boshlab bergen olimning nomini xorazmliklar faxr-iftixon bilan tilga olishadi. 1996-yilda uning "Qadimgi Xorazm" kitobi Xorazm viloyati hokimligi tomonidan fanni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun ta'sis etilgan Al-Xorazmiy nomidagi mukofot bilan taqdirlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.Bekmuhammad "Tariximizning teran tadqiqotchilari" "Xorazm" nashriyoti, Urganch-2006.
2. S.P.Tolstov "Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab" "Yangi asr avlodii" nashriyoti, Toshkent-2014.

**TARIX**

**O'RTA OSIYO XALQLARINING HARBIY SAN'ATI  
TARIXIGA OID BA'ZI BIR MULOHAZALAR  
(ENG QADIMGI DAVRDAN II MING YILLIKLARGACHA)**

**UO'K 520.40**

**Maqsadbek  
G'AFFAROV**

**Urganch  
innovatsion  
universiteti  
stajyor-  
o'qituvchisi**

*Annotatsiya:* Maqolada O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi zamonalardan bronza asri oxirigacha bo'lgan davrdagi harbiy san'atning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi tahlil qilingan.

*Аннотация:* В статье анализируется история возникновение и этапы развития военных искусств народов Средней Азии с древнейших времен до конца бронзы.

*Annotation:* The article analyzes the history of the emergence and development of the military art of the peoples of Central Asia from the earliest times to the end of the Bronze Age.

*Kalit so'zlar:* B.A. Litvinskiy, G.A. Pugachenkova, I.V. Pyankov, O.V. Obelchenko, nayza, kamon o'qi, xanjar, qilich, qalqon, yadro, Sopollitepa.

*Ключевые слова:* Б.А. Литвинский, Г.А. Пугаченкова, И.В. Пьянков, О.В. Обельченко, копье, лук, стрела, кинжал, меч, щит, ядро, Сополлитепа.

*The keywords:* B.A. Litvinsky, G.A. Pugachenkova, I.V. Pyankov, O.V. Obelchenko, spear, bow arrow, dagger, sword, shield, core, Sopollitepa.


O'rta Osiyo mintaqalarida qadimshunos olimlar tomonidan o'troq aholi maskanlari va chorvador qabilalar tomonidan qoldirib ketilgan mozor-qo'rg'onlarda olib borilgan keng ko'lamdag'i arxyeologik izlanishlar natijasida olingan moddiy ashyolar harbiy san'at tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati, qurallanish darajasi bilan B.A. Litvinskiy, G.A. Pugachenkova, I.V. Pyankov, O.V. Obelchenko kabi tadqiqotchilar shug'ullanganlar. Ajdodlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan qurol aslahalarning tarixiy ildizi nayza quroliga borib taqaladi.

Nayza quroli ilk tosh asridayoq ibtidoiy odamlarning ijodi mahsuli edi. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichida, ya'ni mezolit davrida odamzod kamon va uning o'qini ixtiro qilgan. Neolit davrida aynan o'sha qurollar insoniyat faoliyatida yetakchilagini saqlab qolgan.

Eneolit davriga kelib qurol-aslahalar xilma-xilligi oshgan, uning xomashyosi yangi sifatga ega bo'lgan. Misdan nayza, kamon o'qi ishlab chiqarila boshladi. Shu bilan birga qilich, xanjar, bolta kabi qurollar jamiyatga kirib keldi. Miloddan avvalgi III ming yillik o'rtalari va II ming yillikda qurol aslahalar ishlab chiqarish sohasida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bronzadan ishlab chiqarilgan

qurol-aslahalar sifati, shakli oldingi tarixiy davr qurollaridan keskin farqlandi. Bronza davrida tarixiy vaziyat o‘zgardi. Bunga o‘troq aholidan chorvaga boy bo‘lgan kishilarining ajralib chiqishi bo‘ldi. Ular ko‘p sonli chorvani ozuqa mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida tog‘oldi etaklari, dasht hududlariga kelib joylashib, chorvachilik xo‘jaligini o‘z faoliyatlariga olib kiradilar. Holbuki, tog‘oldi etaklari va keng dasht chorvadorlar uchun uzoq muddatli iqtisodiy makonga aylana olmaydi, natijada ular yangi yaylovlarni izlaydilar. Albatta, yangi hududlar o‘troq aholi hisobidan hosil qilinadi. Shuning uchun ham o‘troq aholi chorvadorlardan xavfsirab, maskanlarini mudofaa devorlari bilan o‘rab olib, xilma-xil harbiy qurollarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yanlar (xanjar, qalqon, dubulg‘a, bolta, qilich, takomillashgan kamon o‘qi, loy va toshdan yasalgan yadrolar).

Endi O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi davrdan ilk temir davrigacha bo‘lgan tarixiy jarayonda aholi tomonidan ishlab chiqilgan qurol-aslahalarning tuzilishi, vazifasi va ularning xususiyatlarini tahlil qilamiz.



Nayza – yaqin va o‘rta masofadagi harbiy harakatlarda qo‘llanilgan. U avval toshdan, keyinchalik mis, bronzadan qilinib, yog‘och dastasiga ega bo‘lgan. Dushmanga jarohat yetkazish darajasi uni irg‘itish holati bilan bog‘liq, u o‘ljani sanchish vazifasini bajargan. Undan dastlab yirik hayvonlar, baliqlarni ovlashda ishlatilgan. Uning harbiylashgan turi bronza davri bilan bog‘liq. Chunki bronza davriga kelib jamiyatda tarixiy vaziyat qaltsi holatga kelib qolgan.

Kamon o‘qi – o‘ta hujumkor va keskin zarba beradigan qurol. Uning harakat tezligi kamon ipining tortishish darajasidan kelib chiqqan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazm vohasi urug‘-jamoalari vakillari tomonidan toshdan yasalgan kamon o‘qlari ikki tipda, ya’ni silindr va uzum yaprog‘i shaklida bo‘lgan [1]. Eneolit davrida misdan qilingan kamon o‘qi ikki tipdan iborat bo‘lgan. Ya’ni uning zarba beradigan qismi silindrcha shaklda, ikki yon tomoni sezilarli bo‘rtib chiqqan, ikkinchi tipi esa ikki qirrali, zarba beradigan qismi uchburchak shaklda bo‘lgan. Bronza asriga kelganda ikki va uch qirrali

qilib ishlangan. Uch qirrali kamon o‘qlari katta kuch bilan yuborilishi inson tanasida jarohat maydonini kengaytiradi. Xorazm vohasi aholisi bronza ashyosidan ikki qirrali kamon o‘qining bir necha turlarini ishlab chiqqanlar.

Bronza davrida o‘troq aholi va chorvadorlar tomonidan ishlab chiqilgan kamon o‘qi mukammal bo‘lib, qurol-aslaha sohasida yetakchi bo‘lgan. Mazkur davrdan boshlab, O‘rta Osiyoda kamon o‘qlari insonga qarshi ishlatilgan [2].

Xanjar – bronza davrida ixtiro qilingan. U yaqin masofadagi harbiy harakatlarda ishlatiladi.



Qilich – yaqin masofada piyoda va otliq harbiy tomonidan ishlatiladi. Bronzadan ishlangan qilich Chirikrabet va Ustyurtdagi chorvador qabilalar mozor-qo‘rg‘onlaridan topilgan [3].

Qalqon – miloddan avvalgi III – II ming yilliklarda aholi tomonidan ishlab chiqilgan. U insonning ko‘krak qismini pichoq, xanjar, kamon o‘qi va yadrolar zarbasidan himoya qilgan.

Sovut – yog‘och, mis va bronzadan ishlangan. Harbiy askarning oyoq va ko‘kragini himoya qilgan.

Yadro – loy va toshdan yasalgan. Neolit davrida o‘troq aholi tomonidan ilk bor loydan aylana shaklda yadrolar yasashgan. Eneolit davriga oid Yalong‘ochtepadan 30 ta tuxumsimon shaklda loydan yasalgan yadrolar olingan [4].

Sopollitepadan 250 ta loy, 225 ta toshdan ishlangan yadrolar topilgan. Ularning shakli shar timsolida, aylanasi 44-55 sm, 68-78 sm, og'irligi 230-430, 640-2010 gr. Aksariyat yadrolarning og'irligi 200-500 gr bo'lgan [5].

Otliq askarlar – miloddan avvalgi III – II ming yilliklarda chorvadorlarda paydo bo'lgan [6]. Chorvadorlarda otliq askarlar yangi hududlarga ega bo'lishda muhim rol o'ynagan. Ularning to'lqinli harakati harbiy yurishda o'troq aholi uchun dahshatli kuch sifatida namoyon bo'lgan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma'lumotlar mazmunidan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Odamzod o'z atrofida sodir bo'layotgan tabiat hodisalariga, jumladan, yovvoyi hayvonlar xurujiga befarq bo'limganlar. Og'ir turmush sharoitida oziq-ovqat masalasini hal qilishda atrofida mavjud bo'lgan hayvonlarni ovlashga imkon beradigan qurollarni ixtiro qilishga majbur bo'lganlar. Shunday ilk qurollardan biri nayza bo'lgan. Insoniyatning ilk faoliyatida ishlataligan nayza himoyalanish vazifasini bajargan. Aholi sonining oshib borishi natijasida oziq-ovqat muammosining vujudga kelishi insoniyatning yangi qurollarni ixtiro etishini taqozo etdi.

Shu tariqa, insoniyat kamon va uning o'qini ixtiro qildi. Kamon o'qi ibtidoiy odamlar hayoti uchun keng imkoniyatlarni olib berdi.

Nayza va kamon o'qi, avvalo, toshdan, keyinchalik mis, bronzadan tayyorlangan. Eneolit davriga kelib, harbiy mazmunga ega bo'lgan qurollar soni ko'paydi, loy va toshdan yasalgan shar shaklidagi yadrolar odamzod turmush tarzidan o'rinn oldi. Bronza davriga kelganda jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan o'troq aholi va chorvadorlar o'rtasidagi munosabatlar keskin o'zgargan. Bu esa jamiyat manzarasining harbiylashishiga olib kelgan. Mazkur davrda aholi o'rtasida qurol-aslahalarni tayyorlaydigan malakali alohida kishilar guruhlari vujudga kelganligini qayd qilish lozim. Shu tariqa O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'at maktabining asoslari vujudga kelgan.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. G'ulomov Y. G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. T. "Fan", 1959, 47-bet.
2. Sabirov Q. Qadimgi O'rta Osiyo mudofaa inshootlari tarixidan. (Eng qadimgi davrdan II ming yillik oxirigacha). T. 2008, 16-bet.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М. "Наука", 1962. с.149.; Ягодин В. Н. Сариатский курган на Устюрте. КСИА . н. 140, М. "Наука", 1978, с-154.
4. Хлопин. И.Н. Геоксюрская группа поселений. М-Л. "Наука", 1964, с. 82.
5. Ширинов Т. Орудия производства и оружие эпохи бронзы Среднеазиатского междуречья. Т, "Фан", 1986, с. 25-26.
6. Sabirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. T. "Fan", 2008, 162-bet.

**TARIX****ZAMAXSHARIYNING ZAHMATLI MEHNATI VA BOQIY MEROSI****UO'K 574.511**

**Umid  
BEKMUHAMMAD**

**Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Zamaxshariyning hayoti va faoliyati, asarlarining yaratilish jarayoni, ularning ilmiy ahamiyati yoritib berilgan.

**Аннотация:** В статье рассказывается о жизни и деятельности Замахшари, о процессе создания его произведений, их научном значении.

**Annotation:** This article describes the life and activities of Zamakhshari, the process of creation of his works, and their scientific significance

**Kalit so'zlar:** Zamakhshar, Xorazm, Damashq, Parij, Qohira, madrasa, sharqshunoslik, fond, grammatika, tilshunoslik.

**Ключевые слова:** Замахшар, Хорезм, Дамаск, Париж, Каир, медресе, востоковедение, фундамент, грамматика, языкознание.


**The keywords:** Zamakhshar, Khorezm, Damascus, Paris, Cairo, madrasa, oriental studies, foundation, grammar, linguistics.

Hayoti, faoliyati ibratga va e'tirof etishga loyiq Zamaxshariy to'g'risida ko'plab afsona va rivoyatlar xalq o'rtasida tarqalgan. Shunday rivoyatlar Zamaxshariyning oqsoqligi bilan bog'liqdir. Rivoyatga ko'ra, Xorazmdan yo'l olgan tuyaning nogahon qoqilib yiqilganidan ustidagi bolakay yerga qulaydi. Natijada havoning sovuqligi, qolaversa, og'riqqa chiday olmayotgan bola ingraganicha oyog'ini ushlab yotardi. Otasi o'g'lining fig'onidan darhol borib ko'rsaki, oyoq singan ekan. Shu bois Buxoro tomon yo'lga chiqqan ota-bola orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Afsuski, kunning sovuqligidan singan oyoq jarohati og'irlashib, yiring bog'lab, gangrena kuchayib ketadi. Natijada tabiblar oyoqni davolashning ilojini topisha olmaydi. Taqdiri azal tufayli shu voqeа sabab bolaning to'pig'idan kesib tashlashga majbur bo'lishadi.

Shunday qilib, ilm istab, Xorazmning uzoq bir qishlog'idan Buxoro tomon yo'lga chiqqan bola bir umrga yog'och oyoqda yuradigan oqsoq bo'lib qoldi. Shunga qaramay u butun Osiyoni ilm izlab aylanib chiqishga jur'at qila oldi. Uning ismi Mahmud Az-Zamaxshariy edi.

– Ey xaloyiq, janob hokimimiz Muzaferiddin Muso hazratlari kimki 5000 tanga pul va sarpo sovg'a egasi bo'lishni istaganlarga bir shart qo'yadi, – deb qichqirardi jarchilar butun Suriya bo'ylab, – shart shuki, Az-Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asarini yod olib, hokim huzurida aytib berolsa, aytilgan tillani olib ketaversin.

E’tiborlisi shundaki, o’sha farmondan keyin butun Suriya bo‘ylab Zamaxshariyning o’sha asarini yod olib, tilla-yu sarupo olgan kishilar ko‘p bo‘lgan. Asarni yod olganlarni Suriya hokimi Muzafariddin shunchalik ardoqlagan ekan, o’sha kitobni yozgan insonga qanchalik oltinlar berilgandir, deya hayron bo‘lardi odamlar. Ammo Az-Zamaxshariy garchi ma’lum muddat Saljuqiyalar va Anushteginiyalar saroyida xizmat qilgan bo‘lsa-da, 1118-1119-yillarda og‘ir kasallanganidan so‘ng hokimlar-u shohlar xizmatida bo‘lmashlikka, oltin-u javohirlar jodusiga berilmay, umrini ilmga bag‘ishlashga ahd qilgandi.



“Asl ismi Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad bo‘lgan olim Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgandi. Bolaligidan nimjon va kasalmand bo‘lib voyaga yetgan Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) dastlab ota-onasidan xat-savod oladi. Otasi Mahmuddagi ilmga intilish sabab uni Buxoroga olib borib o‘qitishga ahd qildi. Yo‘ldagi falokat sabab oyog‘i sinib, oqsoq bo‘lib qolgach, Mahmud tahsilni Gurganjdagi madrasada oladi. Madrasada Abumudar Isfahoniying unga saboq berishi hayotida o‘zgarish yasadi. Mahmud ustozidan arab tili qonun qoidalari, falsafa va ilohiyot ilmlarini chuqr o‘rgandi.

Isfahoniying vafotidan so‘ng esa Buxoriy Sharifga borib, Shayxulislom Orisiy, Abusaid Shakkokiyidan ta’lim oladi” (1).

Keyinchalik oqsoqlanib bo‘lsayam karvon safarlarida Xurosonga, undan Bag‘dod, Hijoz va Ummonga boradi. Makkayi Mukarammagga borib, ikki yil hayot kechirgach, ona yurti Xorazmga qaytib keladi. Ammo bu yerda ham muqim tura olmaydi. Yana Shom, Damashq va Makkaga boradi. Uning bir joydan ikkinchi joyga borishi faqat ilm tufayli edi.

U Makkayi Mukarammada ekanligida Ka’bani har gal ziyorat qilib kelib, bir maqola yozardi. Vaqt o‘tib maqolalar soni 100 taga yetdi. Shuningdek, Zamaxshariy Qur’oni Karimning tilovati va tafsirini “Al-Kashshof”, “Al-Mufassal fi-san’at”, “Al-I’rab navobiy ul-kalim”, “Atvoq uz-Zahob”, “Maqomat Az-Zamaxshariy” kabi asarlarini yozganligi uchun islom olamida “Jorulloh”, ya’ni Ollohnинг qo‘sni laqabini olgan yagona zotdir.

Zamaxshariyning arab grammatikasiga oid asarlar yozgani uchun ham o'sha davrdan hozirgacha arablar orasida "Agar shu ko'sa, oqsoq olim bo'lmanida, arablar o'z tillarini bilmas edi" degan naql mavjud.

"Zamaxshariy Xorazmga qaytib kelgach, kasallanib, 1144-yilning 14-aprel kuni Gurganjda vafot etadi. Uni tug'ilib o'sgan Zamaxshar qishlog'iga dafn qilishadi. Xalq hali-hanuz Zamaxshariy qadamjosini ziyorat qilib, uning oyog'i cho'loqligiga nisbat bergenicha qabristonni Oqsoq ota deb ataydi"(2).



Professor  
Ubaydulla Uvatovning  
tadqiqotlariga ko'ra,  
Az-Zamaxshariyning  
o'z davri ilmlarini to'liq  
egallahsga, olimlik  
darajasiga yetishishida,  
shubhasiz,  
ustozlarining xizmati  
benihoya katta bo'lgan.  
Mana shunday  
ustozlardan biri – til,  
lug'at va adabiyot  
sohasida mashhur olim  
Abu Mudar Mahmud  
ibn Jariyr al-Dabbiy al-  
Isfahoniydir (1113-yili  
Marvda vafot etgan).  
Al-Isfahoniy Xorazmda  
ham bir qancha muddat  
yashagan. Bu o'lkada  
mo'taziliylar

ta'limotining joriy bo'lishi ham mana shu Al-Isfahoniy nomi bilan bog'liqidir. Az-Zamaxshariy Bag'dodda shayx ul-islom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Saad ash-Shaqroniy, Abul Xattab ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadis ilmidan tahsil oldi. Makkada bo'lganida esa nahv va fiqh bo'yicha ilmni Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabiriy al-Andalusiy, ash-shayx as-Sadiyd al-Xayyatiy, lug'at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn al-Xadar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o'rgandi.

Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishapur, Isfahon, Shom, Bag'dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy qabilalarining lajhalarini, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rgandi hamda bu mintqa jug'rofiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to'pladi.

Alloma ko‘p asarlarini Makkaligida yaratadi. O‘z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada az-Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh (“Ollohning qo‘snnisi”) degan sharafga muyassar bo‘ladi.

O‘z davrining yirik olimi darajasiga ko‘tarilgan az-Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa ko‘pgina shaharlarida ham ko‘pdan ko‘p shogirdlari bo‘lgan, alloma ko‘p vaqtini o‘shalarga bag‘ishlardi. U qarindoshurug‘larining qiyin-qistovlariga qaramasdan, hayotida biror marta ham uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o‘stirishdan a’lo deb hisoblagan.

Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va hijriy 538-yilda, arafa kechasi (1144-yil 14-aprel) vafot etadi. 1333-yili Xorazmda sayohatda bo‘lgan mashhur arab sayyohi ibn Battuta (1304-1377) “Ar-Rihla” (“Sayohatnoma”) asarida az-Zamaxshariyning ustida qubbasi bo‘lgan maqbarasini ko‘rganini yozgandi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug‘atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug‘rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan bo‘lib, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid “Al-Mufassal” (1121-yil) nomli asarini u Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. “Al-Mufassal” arab tili nahv-u sarfini o‘rganishda yirik qo‘llanma sifatida azaldan sharqda ham, g‘arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi. Ko‘pchilik olimlar o‘z ilmiy qimmati jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (796-yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid kitobidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi, deb ta’kidlaganlar. O‘sha davrning o‘zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e’tibor qozongan va arab tilini o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sarpo sovg‘a qilishni va’da bergen. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga ham sazovor bo‘lganligi manbalarda keltirilgan. Bu misol az-Zamaxshariy asarining o‘sha davrda ham qanchalik yuksak baholanganini ko‘rsatadi. Ushbu asarning bir qo‘lyozmasi Toshkentda, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. “Al-Mufassal”ning ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi “Al-Unmazaj” (“Namuna”) nomi bilan ataladi. Grammatikaga oid asarlaridan “Sharh abyat kitob Sibavayh” hozir zikr etganimiz Sibavayhning kitobiga yozilgan mukammal sharhdir.

Az-Zamaxshariyning Xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga bag‘ishlab yozilgan “Muqaddimat ul-adab” asari alohida ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, Xorazmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, Xorazmshoh Otsiz olimlar, shoir-u adiblarga hurmat bilan qarar, o‘zi ham iste’dodli, ma’rifatparvar,

adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo‘lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, az-Zamaxshariy “Muqaddimat ul-adab”ni uning nomiga bag‘ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo‘lingan bo‘lib, otlar, fe’llar, bog‘lovchilar, ot o‘zgarishlari va fe’l o‘zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137-yillari yozib tugallangan.


Tarix fanlari doktori, Ubaydulla Uvatov fikricha, “Az-Zamaxshariy o‘z asarida o‘sha davr arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e’tibor qilgan. Shu boisdan ham az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo‘nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. “Muqaddimat ul-adab” arabchadan fors, chig‘atoy, mo‘g‘ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta’kidlanishicha, asarning chig‘atoy tilidagi tarjimasi az-Zamaxshariyning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan. Zотан Xоразмшоҳ Otsizning tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birgalikda chig‘atoy tilidagi tarjimasi ham yaratilgan, deb bilish o‘rinlidir. “Muqaddimat ul-adab” yaratilgan davridan boshlab bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga tortib kelayotir. U birinchi marta 1706-yili Xo‘ja Is’hoq Afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima etilgan. So‘ngra Yevropaning bir qancha tillariga (fransuz, nemis) o‘girilgan. Parij, Leypsig, Vena, Leydan, Qozon shaharlarida, Norvegiya, Misr va Hindistonda bir necha marta chop etilgan. Nemis olimi Vaszastayn “Muqaddimat ul-adab”ning Yevropa qo‘lyozma fondlaridagi yettita nusxasini qiyosiy o‘rganib, 1850-yili Leypsigda asarning ikki jildlik tanqidiy matnnini nashr etgan” (3).

Asarning chig‘atoy tilidagi tarjimasi o‘zbek tili tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu haqda Sadriddin Ayniy 1921-yili “Mehnatkashlar tovushi” gazetasiga yozgan maqolasida “Az-Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asari o‘zbek tili uchun butun dunyoning xazinasi bilan barobardir”, deb yozgan edi.

Tarixdan ma’lumki, Az-Zamaxshariy Makka amiri, olim va adib Abul Hasan Ali ibn Hamza ibn Vahhos as-Sulaymon bilan do’st edi. Ibn Vahhos o‘z mamlakatining jug‘rofiyasi bilan juda yaxshi tanish bo‘lgan. Az-Zamaxshariy ibn Vahhos ma’lumotlariga tayanib, o‘zining Hijozga qilgan safaridan olgan shaxsiy kuzatishlari asosida yozgan “Kitob al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh” (“Tog‘lar, joylar va suvlar haqida kitob”) nomli asarida jug‘rofiy joylar, tog‘lar va dengizlarga doir qimmatbaho ma’lumotlar keltiradi. Mashhur arab olimi va sayyohi Yoqut al-Hamaviy (1179-1229) ham o‘zining butun dunyoga taniqli “Mu’jam al-buldon” (“Mamlakatlar qomusi”) asarida Arabiston, xususan, Hijoz haqidagi ma’lumotlarni az-Zamaxshariyning ushbu asariga tayanib yozgan. Az-Zamaxshariyning ushbu asari g‘arb olimlari o‘rtasida ham keng tanilgan bo‘lib, 1856-yili gollandiyalik arabshunos olim Salverda de Grave tomonidan mukammal tadqiq qilingan holda nashr etilgan.

Az-Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo‘yicha ham mukammal asarlar yaratgan. Olimning “Asos al-balogs” (“Notiqlik asoslari”) asari asosan lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so‘z boradi. Alloma ta’kidlaganidek, fikrni chiroyli ibora va so‘zlar bilan ifodalash, so‘z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog‘at ilmlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak.

Buning uchun so‘zni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so‘zlash va yozish ham kerak bo‘lgan. Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so‘z birikmalari, ularni amalda tadbiq etish yo‘llari chuqur tahlil qilingan.



bobdan iborat ushbu asarning nodir bir qo‘lyozma nusxasi Toshkentda, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bundan tashqari, Leyden, Berlin kutubxonalarida ham qo‘lyozmalari mavjud.

Olimning aruz vazni haqida bahs yurituvchi “Al-Kustos fi-l-aruz” (“Aruzda o‘lchov (mezon)”) asari muhim manbalardan hisobla-nadi. Alifbo tartibida to‘plangan arab maqollari, masallariga bag‘ishlangan boshqa bir asarini “Al-Mustaqso fi-l-amsol” (“Nihoyasiga yetgan masallar”) deb atagan. “Maqomat”

“Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi‘z va-l-xutab” (“Xutbalar va va’zlar bayonida oltin shodalar”) - nasihatomuz maqolalar to‘plamidan iborat. Asar birinchi marta 1835-yili nemis olimi Fon Xomir tomonidan nemischaga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. O‘ttiz yilcha o‘tgach, fransuzchaga tarjima qilinib, 1886-yili Parijda chop etilgan. 1873-yili ham usmonli turk tiliga tarjima qilinib, Istambulda nashrdan chiqqan.

Az-Zamaxshariyning “Rabi’ ul-abror va nusus ul-axyar” (“Ezgular bahori va yaxshilar bayoni”) asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalar, latifalar, suhbatlarning eng saralari jamlangan, 97

(“Maqomlar”) – ellik maqomdan iborat bo‘lib, qofiyali nasr-saj’ uslubining nozik namunalarini o‘zida mujassam etgan muhim asardir. “Devon ush-she’r” kitobi ham diqqatga sazovor asarlardan sanaladi. Az-Zamaxshariyning “Navobig“ ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asari esa arab lug‘atlarini o‘rganishga bag‘ishlangan yuksak did bilan yozilgan. Bu asar dastlab fransuz tiliga tarjima qilinib, asl nusxasi bilan birgalikda 1876-yili Parijda, 1870-yili Qohirada, 1884-yili Bayrutda, 1896-yili esa Qozonda nashr etilgan.

Az-Zamaxshariyning g‘oyatda shuhrat qozongan “Al-Kashshof” asari Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan. Ma’lumki, o‘rta asrlardan boshlab Qur’onni tafsir yoki sharh bilan o‘qish odat tusini olgan. Shu boisdan ham Qur’oni Karim yaratilgan davrdan boshlaboq unga bag‘ishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida Qur’onga bag‘ishlangan ko‘pdan ko‘p tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Az-Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval o‘zidan oldin yaratilgan Qur’oni Karim tafsiriga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarni qunt bilan o‘rgangan. “Al-Kashshof” az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida (1332-1334) yozilgani esa yanada hayratli.

Nemis sharqshunosi Karl Brokkelman dunyoning turli qo‘lyozma xazinalarida “Al-Kashshof”ning yuzga yaqin qo‘lyozmalari va asarning o‘ziga bitilgan yigirmadan ortiq sharh va hoshiyalar borligi haqida yozishi, az-Zamaxshariy asarining katta shuhratidan dalolat beradi.

69 yillik umri davomida o‘zidan bir dunyo ilmiy va ijodiy meros qoldirgan Az-Zamaxshariyning oltindan ham qimmat hayoti shundan iborat. U nimjon va kasalmandligiga, buning ustiga, oqsoqligiga qaramay, inson zoti naqadar katta bardosh egasi bo‘lishini va intilsa yuksak marralarni zabt qila olishini isbotlagan buyuk ajdodimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U.Uvatov, “Zamaxshariy”, G‘.G‘ulom nomli adabiyot va san’ati nashriyoti. Toshkent-1992-yil;
2. U.Bekmuhammad, “Xorazm va xorazmliklar”, ”Durdona” nashriyoti, Buxoro-2022-yil;
3. U.Uvatov, “Zamaxshariy”, G‘.G‘ulom nomli adabiyot va san’ati nashriyoti. Toshkent-1992-yil;

TARIX

## XORAZM VOHASINING IBTIDOIY MADANIYAT TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR



**Sardor  
NURMETOV**

**Urganch  
innovatsion  
universiteti  
stajyor-  
o‘qituvchisi**



**Nuriddin  
ALLAYAROV**  
**Urganch  
innovatsion  
universiteti  
talabasi**

**UO‘K 521.36**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm vohasining ibtidoiy davriga oid tarixiy geografik va arxeologik ma'lumotlar asosida ibtidoiy madaniyat tarixiga oid mulohazalar yoritilgan.

**Аннотация:** В статье рассматриваются размышления об истории первобытной культуры на основе исторических географических и археологических данных, относящихся к первобытному периоду Хорезмского оазиса.

**Annotation:** This article covers reflections on the history of primitive culture on the basis of historical geographical and archaeological data from the primitive period of the khwarezmian Oasis.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, ibtidoiy madaniyat, Orolbo‘yi, Oqchadaryo, Sarigamishbo‘yi, Ustyurt.

**Ключевые слова:** Хорезм, первобытная культура, Приаралье, Акчадарья, Сарыкамыш, Устюрт.

**Key words:** Khorezm, primitive culture, Islet, Akchadarya, Sarigamishboy, Ustyurt.

O‘zbekiston hududi shimoli-g‘arbining geografik xususiyatlari vatanimizning boshqa tarixiy-madaniy viloyatlaridan farqlanishini kuzatish qiyin emas. Xorazm hududining aholi kelib joylashib xojalik sohalarini olib borishiga qulay pasttekislik Ustyurt hisoblangan. Chunki janubidan Pitnakkacha, o‘ng sohilda Sho‘roxondan Orol dengizi sohili adog‘igacha Amudaryo faoliyati natijasida shakllangan. Mazkur Orol dengizi janubiy-sharqiy geografik chegarasi shakllanishida Sirdaryoning faolligi beqiyos. Shu ma’noda Orolbo‘yi, Oqchadaryo va Sarigamishbo‘yi havzalari shakllangan.[1]

Xorazm vohasi hududi ikki (o‘ng va so‘l) qismlardan iborat bo‘lishi Amudaryo faoliyati natijasiga bog‘liq. O‘ng sohil hududida Sho‘roxon va Orol dengizi janubi-sharqiy sohili etagigacha bo‘lgan Oqchadaryo havzasи, so‘l sohil hududi geografik holati bo‘lgan Sarigamishbo‘yi, Tuyamo‘yin hududlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Umuman, Xorazm vohasi hududi yuzasining rang-baranglik holati Sarigamishbo‘yi, Oqchadaryo va Orolbo‘yi vohasining shakllanishi Amudaryo va Sirdaryoning ming yillar mobaynida suv tarkibidagi mineral moddalarni

yetkazishi natijasida sernam va serunum sof tuproq ajdodlarimizning asrlar mobaynida kasb-korlarini olib borishiga sabab bo‘lgan. [2]

Geologik adabiyotlarda qayd qilinishicha, eramizdan 4 – 3 mln yillar oldin Sariqamishbo‘yi – Orol botig‘i hamda Qizilqum – Orol botig‘i janubi-sharqiy hududlari tekislik bo‘lgan. [3]

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga bag‘ishlangan asarlarda zamin tarixida to‘rtinchı davri Kaynazoy erasi uchlamchi va to‘rtlamchi davrlarida kechgan jarayonlar sifatida qayd qilingan. Chunonchi, to‘rtlamchi davr uch bosqichdan iborat bo‘lib, neogen, eopleystosen davrlarida O‘rta Osiyo, shu jumladan, Xorazm vohasi tekislik bo‘lgan bo‘lsa, 500 mingyillikdan Golosen (10 mingyilliklar) davrigacha Pleystosen muzliklari qamrab olgan. [4]


Bu davrga oid Ustyurt hududida kechgan jarayonlar so‘nggi tosh davrida sodir bo‘lgan. Natijada Churuk manzilgohida ovchi-termachilarining aholi soni oshganligi, mehnat qurollari hamda ekologiya zaxirasi kamayishi sabab bir guruh avlodlari amaliy kasbi-korini rivojlantirishda doimiylik bo‘lishi ilinjida yashab turgan. Ana shu vaziyatda geografik hudud doirasidan kelib chiqib, tabiiy-iжtimoiy manbalarni izlab topish maqsadida Sulton Uvays tog‘i so‘l hududida ovchi-termachilar mavjud bo‘lgan. Ular sharoit taqazosi tufayli tabiiy manbalardan foydalaniб, Burli-3 manzilgohiga asos solib so‘nggi tosh davrida notanish geografik hududlarda etnik munosabatlarni olib borishgan. [5]

Arxeolog Y.A. Vinogradova Sulton Uvays tog‘i so‘l hududini o‘zlashtirgan va noma’lum hududga moslashib, kasb-korlarini olib borgan ovchi-termachilar qaysi mintaqadan kelganligi to‘g‘risida fikr-mulohzalar qayd qilmaydi. Nazarimizda, Ustyurt janubi-sharqiy hududida etnik munosabatlarni olib borgan Churuk manzilgohi ovchi-termachilar vyurm muzlik davri oxiriga kelganda Sulton Uvays tog‘i so‘l hududiga kelib joylashgan. Natijada aholi sonining o‘siganligi bois so‘nggi tosh davri, mezolit va neolit davrlarida etnik jarayonlarni olib borganlar. [6]

Miloddan avvalgi VI – V mingyilliklarda Amudaryo suv ta’minoti trangressiyasi natijasida Sho‘roxon yaqinidan ajralib chiqqan (o‘ng sohilida) Oqchadaryo irmog‘i 25 km uzunlikda suv oqimining Qizilqumga yo‘naltirilishi munosabati bilan botiqlarni suv havzasiga aylanish jarayonida Yonboshqal‘a balandligi to‘siq bo‘lganligi munosabati bilan shimoldagi botiqqa suvini olib borgan.

Amudaryoning Davdon sohili hududi geologik holatini aks ettirgan Sariqamishbo‘yi havzasi yuzasini ikki qismga ajratgan Amudaryoning janubi-g‘arbida Qoraqum oralig‘ida botiqlar suv havzasiga aylangan. Natijada to‘plangan suv doimiy ravishda saqlanib turishi mahalliy aholi o‘rtasidagi Tunidaryo sohili etaklari flora va faunaga serob bo‘lib, odamzodning kundalik faoliyatlarini boshlash imkonini vujudga kelgan [7].

Miloddan avvalgi VI-V mingyilliklar mobaynida Amudaryo faoliyati natijasida Xorazm vohasi sernam va serunum hududi odamzodning kelib joylashishi, tabiiy resurslardan unumli foydalanib, hayot amaliyotini belgilab, istiqbolli taraqqiyot yo‘lini olib borishga imkoniyat yaratgan. Xorazm



ekspeditsiyasi asarlarida neolit davri ilk bosqichlarida voha hududida aholining joylashishi to‘g‘risida ma’lumotlar uchramaydi.

S.P.Tolstov monografiyasida Xorazm atamasining Turon tarixi sahifasi miloddan avvalgi IV mingyillik oxiri – III mingyillik birinchi yarmi, III mingyillik ikkinchi yarmi – II mingyillik boshlarida Yonbosh-4 manzilgohida ona rahnamoligida xo‘jalik yo‘nalishlarini olib borgan ovchi termachilarining moddiy va manaviy madaniyati erishgan yutuqlarini “Kaltaminor madaniyati” etnografik va etnodemografik nomlarida qayd qilgan. [8]

Biroq, Xorazm ekspeditsiyasi xodimlaridan S.P.Tolstov,

A.V.Vinogradov, B.V.Andrianov, M.I.Itinaning tadqiqotlarida Yonbosh-4 manzilgohida istiqomat qilgan urug‘ jamoalarining tabiiy manbalardan unumli foydalanib, xo‘jalik sohalarida yangi yo‘nalishlarni taklif qilganligi, moddiy va manaviy sohalarda erishgan zafarlari mahalliy aholiga yoki qo‘sni hududlardagi migratsiya masalasida ilmiy fikrlarini qayd qilishmagan.

Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan fikr-mulohazalardan quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin:

- Turon pasttekisligi yuzasining rang-barang bo‘lishi paleotektonik va paleogeografik natijalarga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon Xorazm vohasini ham qamrab olgan. Mazkur tekislik yuzasi Turon pasttekisligi tuzilishi jihatdan o‘ziga xos xususiyatida namoyon bo‘lganligi, ibridoiy odamzodning joylashishida o‘z ma’nosini topgan.

- So‘nggi tosh davri oxiriga kelganda Ustyurtning janubi-sharqiy hududlari ovchi-termachilarining bir guruh vakillari tarix taqazosi bilan vohaning shimoli-g‘arbiy Sulton Uvays tog‘i so‘l hududiga ilk etnik makon bo‘lib shakllangan. Natijada ular amaliy mashg‘ulotlarni mezolit va neolit davrining ilk bosqichlarida kundalik faoliyatlarini olib borishgan.

Tadqiqotchilar asarlarida Yonbosh-4 manzilgohida istiqomat qilib, xo‘jalik faoliyatlarini olib borgan ona rahbarligidagi urug‘ jamoalari uyushmalarini neolit davri tarixiy sanalariga qo‘sib bo‘lmaydi. Bizning fikrimizcha, Sulton Uvays tog‘i o‘ng va so‘l hududlarida Burli-3 ovchitemachilari aholi soni o‘sishi, mehnat qurollari tanqisligi, tog‘-kon ashyosi zaxirasi keskin kamayishi, oziq-ovqat muammosini e’tiborga olgan avlodlar hududni tark etishgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amudaryoning o‘ng sohilida Sulton Uvays tog‘idan Sho‘roxongacha, so‘l sohilida esa Tuyamo‘yin hududidan Uzboygacha bo‘lgan hududlarda turar joylarda istiqomat qilib, tabiiy resurslardan foydalanib, kasb-korlarini belgilab olgan ajodolarimiz so‘nggi tosh davridan – neolit davri o‘rtalarigacha xo‘jalik faoliyatlarini olib borganlar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование аллювиально-дельтовых равнин Амудары// Культура и искусство древнего Хорезма. – М., наука, 1981.
2. Baratov P, Mamatkulov M, Rafikov A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent, o‘qituvchi, 2007.
3. Ягодин В.Н. Низовья Амудары в эпоху распада первобытно-общественного строя и возникновения первичных государственных образований// Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013.
4. Виноградов А.В, Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов А.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения человека в пустынях Средней Азии. – М., наука, 1974.
5. Kabirov J, Sagdullayev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. – Toshkent, 1990.
6. Виноградов Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге// Приаралье в древности и средневековье. – М., 1998.
7. Бижанов Е.Б. О находках памятников каменного века в районе впадины Шахпакты на Устюрте// Вестник Каракалпакского филиала. УзССР – наука. 1983. Вып.1.
8. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и Яксарта. – М, Наука. 1962.

**TARIX****KASB-HUNAR BILAN BOG‘LIQ MAROSIMLARLarda  
USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARI TAHLILI**

**Dilrabo  
BABAJANOVA**  
**Tadqiqotchi**

**UO‘K 521.36**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uzoq yillar davomida shakllangan kasb-hunar bilan bog‘liq marosimlarlardan biri – “Usta fotiha” marosimi va undagi hunar pirlari ruhiga bo‘lgan e’tiqod va ishonchlar talqini o’rganilgan. Shuningdek, shogirdlikka berishdagi urf-odatlar, shogirdga qo‘yiladigan talablar, ustoz-shogird o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ushbu marosim insonning keyingi hayoti va ish faoliyatida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma’lumotlar berilgan.

**Аннотация:** Статья посвящена изучению одному из профессиональных церемоний, которое формировалось на протяжении многих лет, церемонию “благословения мастера” и ее интерпретация верований и убеждений в духе святых. Вместе с тем в статье предоставляется информацию о ритуалах ученичества, требованиях к ученику, взаимоотношениях между учителем и учеником, а также важности этой церемонии для дальнейшей жизни и деятельности человека.

**Annotation:** The article is devoted to the study of one of the professional ceremonies that have been formed over the years, the ceremony of "blessing the master" and its interpretation of beliefs and beliefs in the spirit of the saints. At the same time, the article provides information about the rituals of apprenticeship, the requirements for the student, the relationship between the teacher and the student, as well as the importance of this ceremony for the future life and activities of a person.

**Kalit so‘zlar:** usta, fotiha, hunar, marosim, pir, kasb, ustoz, shogird, din, urf-odat, ishonch, haq.

**Ключевые слова:** мастер, благословение, профессия, обряд, пир, учитель, ученик, религия, традиция, доверие, истина.

**Key words:** master, blessing, profession, rite, feast, teacher, student, religion, tradition, trust, truth.

Xalqning madaniy merosida xalq ijod qilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega turli bayramlar, ommaviy o‘yinlar va mavsumiy marosimlar orasida hunar-kasb bilan bog‘liq marosimlar alohida o‘rinni egallaydi. Bularning ichida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim an‘anaviy tartiblardan biri ustozlarning shogirdlarga fotiha berish marosimi diqqatga sazovorlaridan hisoblanadi. Marosimlar qadim o‘tmishda paydo bo‘lib, minglab yillar davomida saqlanib

kelgan va muntazam ravishda rivojlanib borgan. Islom dini qabul qilinishi bilan ko‘pgina oilaviy urf-odatlar uning ta’siriga o‘tdi va o‘zbeklarning hayotiga diniy urf-odatlar kirib keldi.

Shogirdlikka berishda quyidagi urf-odat bo‘lgan: Bolani usta oldiga olib borish o‘ziga yarasha tantana bo‘lgan. Ota-onas, qarindosh-urug‘lar “bo‘y” degan bo‘g‘irsoq va xolvaytar olib, ustaning huzuriga kelganlar va “Bolaning go‘shti sizniki, suyagi bizniki!” qabilidagi gaplar bilan bolani uning ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o‘sha paytdayoq tanovul qilingan. Usta bolaga hunar o‘rgatishdan tashqari, butun o‘qish davomida o‘zi oziq-ovqat bilan ta’minlab turgan. Kasb tekinga o‘rgatish uchun haq tayin etilmagan<sup>1</sup>.

Yigit kasbini o‘rganib, o‘zi mustaqil ravishda ishslash darajasiga yetganda ota-onasi fotiha ziyofatini o‘tkazishi shart bo‘lgan. Shogird yetim bo‘lsa, ustaning o‘zi ziyofat qilib bergen. Fotiha berish marosimiga katta ustalar, qalantar (qalandar) topshirig‘i bilan paykal orqali taklif qilinadi. Ziyofatga kasb (ulpagar) rahbarlari bilan domla ham chaqiriladi. Qalantar yangi sarpolar kiyangan shogirdni davraga chaqirib, ustasiga va shogirdiga shunday murojaat qiladi: “Usta, siz shogirdingizni boqdingiz, kiyintirdingiz, non, tuz va pul berdingiz, shunga rozimisiz? Roziman!” – deb javob beradi usta. Keyin shogirddan so‘raydi: “Ustaga xizmat qilding, xizmatingga rozimisan? – Roziman!” Shundan keyin usta-shogird o‘rtasida suhbat bo‘lib o‘tadi. Shogird ustasiga qarab: Ko‘p xizmatingizni qildim, ko‘p tuzingizni yedim, usta rozi bo‘ling!” Usta unga javoban: “Urdik, so‘kdik, koyidik, sen ham rozi bo‘l!”, – deydi. Ba’zan ayrim ustalar savollar berib, imtihonga o‘xhash savol-javoblar ham bo‘lgan. Marosim yakunida shogirdga ustalikka fotiha beriladi, shogird o‘z ustasiga, qalantarga, imkoniyati bo‘lsa, hurmatli katta ustalarga ham sarpo kiygizadi. Ayrim kasblarda usta shogirdiga ba’zi ish qurollarini hadya qiladi<sup>2</sup>. Bu marosim barcha kasblarda deyarli bir xil o‘tgan.

O‘rganishlarmiz davomida Xorazm vohasidagi bir nechta hunarmand ustalar bilan mavzu yuzasidan suhbatlashdik. Vohaning etnografik marosimlarida ham hunarmand ustalarning o‘z ustozidan potiya (fotiha) olishi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan udumlardan biri sanalgan. Biror bir hunarning sir-asrorlari va qoidalarini o‘rganishni xohlagan yoshlar tajribali hunarmand ustalarning yonida uzoq yillar davomida shogird sifatida yurgan holda kasb sirlarini o‘rganganlar. Shu bilan bir qatorda hunarmand ustalar ham o‘z kasbining sirlarini qo‘l ostidagi shogirdlariga imkon qadar mukammal o‘rgatish harakatida bo‘lganlar. Bundan asosiy maqsad ustalar tomonidan yaratilgan bunyodkorlik ishlarining kelgusi avlodlarga yetib borishi hamda ushbu hunarmandchilik maktabining yanada kengayishi (ko‘proq shogirdlar yetishib chiqishi) va rivojlanishi ko‘zda tutilgan.

<sup>1</sup> Bulatov S, Muxtorov A. Ganchkorlik san’ati. – Toshkent: Musiqa, 2006, 11-bet.

<sup>2</sup> Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyası. – Toshkent: O‘qituvchi. 1994, 205-206-betlar.

Xivalik axborotchi uzoq yillardan beri ustachilik (ganchkorlik) bilan shug‘ullanib kelayotgan usta Salayev Norbek ham “Usta fotiha (potiya)” marosimi haqida quyidagilarni ta’kidlab o’tdi:



Shogird ustozidan fotihasini olish uchun 5-6, hatto 10 yillab, ustozining yonida yurib, kor (hunar) sirlarini o‘rgangan. Shogird usta bo‘lib yetisha boshlaganini sezgan usta vaqt soati bilan shogirdni alohida usta qilib chiqarish bo‘yicha takliflarini aytgan. “Usta fotiha (potiya)” marosimida 7 xil usta chaqiriladi. Har bir ustaning pirlari bo‘lgan. Yetti xil ustaning bir joyga yig‘ilishida “7 pir bir joyga yig‘iladi” degan ishonch bor.

Marosim boshida usta tomonidan fotiha oladigan shogirdning beliga belbog‘ bog‘lanadi. Belbog‘ bog‘langanidan keyin shogirdning ikki qo‘ltig‘iga ikkita non beriladi. Shogird fotiha olish jarayonida shu ikkita nonni (bu non shogirdning rizqi ma’nosini bildirgan) qo‘ltig‘idan tushirmsandan hamma ustalar bilan tiz cho‘kib, qo‘shqo‘llab salomlashib, “rozilik fotiha”sini olib chiqadi. Dastavval asosiy usta fotiha beradi. Qolgan 6 nafar ustalar ularning koridan foydalanishi uchun ruxsat beradi. Shu narsani yaxshilab anglab olish zarur. Buning sababi, kelajakda shogird o‘zi o‘rgangan sohadan tashqari qolgan ustalarning kor (hunar)laridan foydalaniib, faoliyat yuritishi mumkin. Shuning uchun ham qolgan ustalar (bizni kor (hunar)imizga taalluqli ishlarni ham qilishiga rozimiz degan ma’noda) “rozilik fotiha”sini berib, omad tilashadi. Hamma ustalardan fotiha olib bo‘lgan shogird ustozlariga ko‘ngidan chiqqan sovg‘asi (ko‘p hollarda kostyum-shim yoki ko‘ylak atalgan)ni beradi. Keyin shogirdning otasi fotiha beradi. Shu kundan boshlab shogird fotiha olgan usta hisoblanadi. Asosiy usta tomonidan shogirdga, albatta, ish qurollaridan biri berilgan. Bunda

“kelajakda shogird ushbu ish quroli bilan oilasini ro‘zg‘orini tebratsin” degan ma’no yotadi. Shogird ham ushbu ish qurolini “ustozim tomonidan berilgan tabarruk ish quroli” deb muqaddas bilib ishlatgan<sup>1</sup>.

Uy-joy qurish va ta’mirlash bilan shug‘ullanadigan ustalarning “Usta fotiha (potiya)” marosimida quyidagi ustalar ishtirok etishgan:

1. Sartarosh usta; 2. Bobodehqon; 3. Duradgor usta; 4. Loy va g‘isht ustasi;
5. Temirchi usta; 6. Mulla; 7. Shogirdga hunar o‘rgatgan ustozi<sup>2</sup>;

Ustoz dunyodan o‘tgandan keyin, shogird tomonidan ustoza g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, muntazam ravishda har kuni ish jarayonida, ibodatda va bayramlarda ustoz doimiy ravishda eslab turilgan va ularning ruhiga sig‘inilgan. Ushbu marosimlar ham turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan. Jumladan, Xorazm vohasi aholisining musulmonlikgacha bo‘lgan urf-odat va marosimlarini chuqur o‘rgangan olim G.P.Snesarev ham ushbu marosim haqida quyidagilarni yozib qoldirgan:

“Har bir shogirdning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi tantanasiga bag‘ishlangan maxsus yig‘ilishlarda, albatta, barcha hunarmandlar “*arvohi pir*” udumini takrorlashadi. Xorazmda, umuman, O‘rtta Osiyoda hunarmandlar o‘zlarining marhum ustozlari xotirasiga bag‘ishlab muntazam ravishda ularning uyiga borib, ma’raka tashkil qilishadi. Kulollar, temirchilar va boshqa hunarmandlar yangi xona ochish marosimida marhum ustozlar xotirasiga bo‘g‘irsoq pishirib, is chiqarishadi. Marhum hunarmandlarning oilasida va ustaxonasida payshanbadan jumaga o‘tish kechasida xonalar tozalanib, shamlar yoqib qo‘yishgan. O‘tganlarning ruhi kelib ketishini kutishgan<sup>3</sup>.

Mavzuni o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik: “Usta potiya (fotiha)” marosimida o‘zbeklarning milliy ruhiyati, ma’naviyati, yaratuvchi mehnatga munosabati, an’analarning davomiyligini ta’minlashga qaratilgan xalqona kadrlar tayyorlash usullari, ustozi-shogird o‘rtasidagi odob, fe’l-atvorning eng go‘zal shakllari namoyon bo‘ladi. Ushbu marosim genezisidan boshlab, davomiy rivojlanish dinamikasini o‘rganish masalaning ko‘p yangi qirralarini ochish imkonini beradi. Marosimda o‘z kasbining mohir ustalari, ya’ni ularning siyemosida o‘z kasbining “pir”laridan fotiha olish kelgusida shogirdning farovon hayot kechirishini ta’minlashiga ishonch ifodasi bo‘lgan.

<sup>1</sup> Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Xiva shahri Yangi hayot mahallasi. 2020-yil.

<sup>2</sup> Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani, Obod j/x, Xosiyon mahallasi. 2020-yil.

<sup>3</sup> Snesarev G.P. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari. – Urganch: 2018, 118-bet.

## FILOLOGIYA

### XORAZM SHEVALARIDA VARIANTDORLIKNI HOSIL QILUVCHI AYRIM SO‘ZLAR-TERMINLAR



**Zebiniso  
SHARIPOVA**

**Urganch  
davlat  
universiteti  
o‘qituvchisi**



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi sug‘orish leksikasini tashkil qiluvchi ayrim lisoniy birliklar tahvilga tortilgan.

**Аннотация:** В статье анализируются некоторые языковые единицы, составляющие лексику ирригации в хорезмско-огузских говорах.

**Annotation:** This article analyzes some linguistic units that make up the lexicon of irrigation in the Khorezm Oghuz dialects.

**Kalit so‘zlar:** milliy til, shevalar leksikasi, tabiiy sug‘orish obyektlari, sun‘iy sug‘orish obyektlari, leksik sath, lug‘aviy qatlam, dialektal leksika.

**Ключевые слова:** национальный язык, диалектная лексика, объекты естественного орошения, объекты искусственного орошения, лексический уровень, лексический пласт, диалектная лексика.

**Key words:** national language, lexicon of dialects, natural irrigation objects, artificial irrigation objects, lexical level, lexical layer, dialectal lexicon.

Mustaqillik yillarda tilimiz leksik sathining asosiy birligi – so‘z va uning ko‘p qirrali xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi. Hozirga qadar leksikologiya va leksikografiya sohalarida bir qator e’tiborga molik ishlar bajarilgan bo‘lsa-da, istiqlol davri o‘zbek tilshunosligi oldida leksik sathni sistem-struktur tilshunoslik nuqtai nazaridan batafsil o‘rganish, lug‘aviy qatlamning, shu jumladan, dehqonchilik terminlari qo‘llanilishining semantik jihatdan yoritishning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish kabi qator muammolar turgani sir emas.

Tillar ta’limiga e’tibor davlat sièsatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangani O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida “...ijtimoiy sohani, jumladan, ilm-fan, adabiyot, san‘at sohalarini rivojlantirish lozimligi” alohida ta’kidlangan. Holbuki, o‘zbek tilida dehqonchilik leksikasi atamalariga oid boy terminologiya mavjud bo‘lib, ularning shevalardagi semantik xususiyatlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish muayyan nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda o‘zbek tilining dehqonchilik leksikasi, jumladan, uning tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazm shevalaridagi dehqonchilik leksikasi

atamalarining oldida hali yechimini kutayotgan qator muammolar turganligi hech kimga sir emas. Bular: o‘zbek tili dehqonchiligi leksikasining turkiy va turkiy bo‘lmagan qatlami, dehqonchilik oid leksik parallelar, ulardagи variantdorlik masalalari, shuningdek, Xorazm shevalaridagi dehqonchilik leksikasi atamalarining mavzuiy guruhlari, ulardagи madaniy va turli xildagi ekinlarning nomlari, sug‘orish, agrar va polizchilikka leksikasi terminologiyasining lisoniy xususiyatlariga doir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularning monografik planda tadqiq etilishi ushbu mavzuning dolzarbliligidan dalolat beradi.

Demak, o‘zbek tilshunosligidagi variantdorlik masalasi o‘zbek tili leksikasining barcha qatlamlari uchun xosdir. Bundan o‘zbek tilining qishloq xo‘jaligi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan dehqonchilik leksikasi ham mustasno emas. Shuning uchun ham o‘zbek tilining Xorazm shevalari qishloq xo‘jaligi, jumladan, dehqonchilik leksikasining muhim xususiyatlaridan biri uning variativligidir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, til variantdorligi turli omillar vositasi yordami vujudga keladi. Tilshunos Sh.Soribayev o‘zining ishlaridan birida so‘z variativligining to‘rt tipini ajratib ko‘rsatadi: 1) adabiy; 2) og‘zaki nutqqa oid – adabiy; 3) orfografik; 4) dialektal adabiy. Uning fikricha, kasb-hunarga oid dialektal leksika hammadan ham og‘zaki nutqqa oid – adabiy va dialektal-adabiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ushbu muallif, o‘z navbatida, so‘nggi guruheni yana ikki guruhga ajratadi: a) adabiy jihatni yorqin ifodalangan dialektal-adabiy variantlar; b) adabiy jihatni yorqin ifodalanmagan dialektal-adabiy variantlar . Qayd etilgan mazkur tasnifni o‘zbek adabiy tili va uning shevalaridagi qishloq xo‘jaligi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan dehqonchilik leksikasiga ham tatbiq etish mumkin.

Dialektal-adabiy tipning birinchi kichik guruhiiga misol tarzida tubandagi variantlarni keltirib, variantdorlikning paydo bo‘lishini kuzatishimiz mumkin: masalan, yordamchi / ko‘makchi / hasharchi; poxol / palanch / palanj / poya / g‘o‘zapoya, terak / darak / tol, makka / jo‘xori / makkajo‘xori; tarvuz / taruz / xaruz / xarmuz; fartuk / peshkil / peshkir; ketmon / katman / gatman; sabzi / kashir / gashir va boshqalar.

Dialektal-adabiy tipning ikkinchi kichik guruhiiga esa adabiy jihatni to‘liq ifodalanmagan variantlarni keltirgan holda variantdorlikni hosil qilish mumkin, masalan, yo‘rinxcha / yo‘norqcha / yonja (beda); gurbak / gurvak / dunglak (qovun turi); qorriqiz / trish / bo‘rikalla / olaxomma (qovun turlari). O‘zbek tilining qishloq xo‘jaligi leksikasi bu kabi leksik variantlarga nihoyatda boy.

Bugungi kunda o‘zbek tilining qishloq xo‘jaligi leksikasi har bir hudud shevasi, hozirgi hududiy variantdorligi butun dialektal leksikaning bevosita va bilvosita aloqasi ana shu hudud hamda qishloq aholisi nutqi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham o‘zbek tilining qishloq xo‘jaligi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan dehqonchilik leksikasi dialektal leksikaning ko‘pgina o‘ziga xos

xususiyatlari bilan bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, kasb-hunarga oid nomlanishlarning dialektal variantlariga egaligi bo‘lib, turli xildagi qishloq xo‘jaligi ekinlari, ish qurollari hamda yerga ishlov berish usullari mavjudligidan kelib chiqadi. Ushbu so‘zlar variantdorligining asosiy sabablaridan biri u yoki bu holat va harakatlarga ta’rif beradigan belgilar ko‘pligi bilan birga nom hosil qilish uchun ulardan birini tanlashda keng imkoniyatlar mavjudligilir. Tadqiq etilayotgan shevalarda yangi mehnat qurollari turlicha nomlanadi. Masalan, ba’zan yangi ish qurollari qadimgi nomlar yoki boshqa buyumlardan ko‘chirilgan eski nomlar, shu bilan birga, ko‘chma nom va semantik kalkalar (yangi qurob boshqa xalq ixtirosi bo‘lgan holda: pompa, mini traktor) qo‘llanadi. Bularning barchasi dialektal variantdorlikning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Biz har doim xalq terminshunosligidagi variantdorlikni tabiiy hodisa deb qaraydigan tilshunoslar nuqtayi nazariga qo‘shilamiz. Chunki, shunga amin bo‘ldikki, shevalardagi so‘zlar variantdorligi adabiy tilga nisbatan keng qo‘llaniladi.

Shu nuqtayi nazardan, Xorazm shevalari qishloq xo‘jaligi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan dehqonchilik leksikasini quyidagicha guruhlab ko‘rsatish mumkin:

- a) adabiy tildan o‘rin olgan dialektal so‘zlar;
- b) adabiy til va boshqa shevalarda muqobiliga ega bo‘lgan so‘zlar.

Xorazm shevasida ikkinchi guruh qishloq xo‘jaligi leksikasi, jumladan, dehqonchilik, bog‘dorchilik, polizchiliik, baliqchilik sohalarida qo‘llaniladigan ayrim so‘zlar-terminlar tor dialektal, ya’ni o‘sha hududda uchraydigan va qo‘llaniladigan so‘zlar qatlamini o‘z ichiga oladi. Boshqa hududlardagi shevalarda bunday so‘zlarning o‘xshash (parallel) variantlari deyarli uchramaydi.

Shu sababli ham o‘zbek adabiy tilida ham ularning variantlari mavjud emas. Masalan, Xorazmning turli hududlarida yashaydigan aholisi nutqida qishloq xo‘jaligi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan dehqonchilik leksikasiga doir ayrim so‘zlar: masalan, arpa, bug‘doy, qovun, tarvuz, jo‘xori, ketmon, o‘roq, urug‘, urug‘lik, bodring, yer haydamoq, urug‘lik sochmoq, paxta, yig‘im-terim, olma, nok, uzum, shaftoli, olcha, gilos, kartoshka, mexanizator, traktorchi, mirob, bog‘bon, karavul, sigir, mol, qo‘y, qo‘chqor va boshqa so‘zlar Respublikamiz hududidagi barcha shevalari, jumladan, o‘zbek adabiy tilida ham birdek tushunarli bo‘lsa, zamcha, trish, qarriqiz, chiya, palanch, chuta, talak, go‘don, gadik, chel, rash, yonja, yorinja, yongichqa, pushta, qariq, tig‘a, otiz, so‘t, oqso‘t, qoraso‘t, bajik/bajalak, o‘jak, kunda, kuchan, bo‘yindiriq, do‘ngiz o‘ti kabi so‘zlar faqatgina Xorazm aholisi uchungina tushunarli bo‘lib, ularning parallel variantlari o‘zbek tilining boshqa shevalarida deyarli uchramaydi. Keltirilgan shevaga xos so‘zlarning ayrimlarini esa, hattoki, Xorazm vohasi aholisining ayrimlari bilishmaydi, ayniqsa, yosh avlod vakillari bilishmaydi. Shuning uchun ham biz mazkur hodisani tor dialektal leksika doirasiga kiritishni ma’qul ko‘rdik.

Adabiy tilda ifodasiga ega bo‘lmagan buyumlar va boshqalarni ifodalovchi kasbiy so‘zlar faqat birgina viloyat yoki hududga xos qishloq xo‘jaligi va uning

tarkibiy qismi bo‘lgan dehqonchilik leksikasi boshqa tushunchalarning yagona ifodasi bo‘lib kelsa, vaqtি kelib, ular adabiy tildan muhim o‘rin egallaydi va o‘zbek tili qishloq xo‘jaligi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan dehqonchilik leksikasining rivojlanishiga munosib hissa qo‘sadi, chunki har qanday til, birinchi navbatda, ichki manba hisobiga boyidi hamda ichki manba esa adabiy tilning tarkibiy qismi bo‘lgan shevalardan o‘zlashadi. Bu kabi shevaga xos bo‘lgan so‘zlar adabiy tilning bitmas-tuganmas manbayi bo‘lib xizmat qilaveradi. Aslida, o‘zbek tili qishloq xo‘jaligi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan dehqonchilik leksikasini umumxalq leksikasiga nisbatan olib qaraydigan bo‘lsak, so‘z ma’nolari hamda ular qo‘llanilishining barqarorligi, kasbiy va umumxalq maishiy so‘zlar hamda ma’nolar chuqurlashib o‘zaro bog‘lanib ketgan. Shuning uchun ham o‘zbek tili qishloq xo‘jaligi leksikasining asosiy qismini kelib chiqishi jihatdan umumadabiy bo‘lgan so‘zlar tashkil etib, mavzu jihatidan jamiyat, inson, tabiat, hayvonot va o‘simliklar dunyosi bilan bog‘liq juda keng umumadabiy qatlamni o‘z ichiga oladi. Ularning o‘zi terminlar vazifasida ham keladi (bug‘doy, yer, suv, o‘zak, irmoq, o‘t, daraxt, o‘simlik, arpa, makkajo‘xori, jo‘xori va h.k.). Shuning uchun ham bu so‘zlar bir vaqtning o‘zida ham umumkasbiy, ham tor ixtisoslashgan sohaga tegishlidir. Xullas, o‘zbek tili Xorazm shevasining dehqonchilik leksikasi o‘ziga xos leksik birliklarga ega bo‘lib, kelgusida qaysidir ma’noda qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti natijalarini rivojlantirishga xizmat qila oladi.

Boshqa tillardan kirib kelgan ko‘plab so‘zlar o‘zlashtirish jarayonida o‘zining asl tuzilishini ham o‘zgartiradi, ya’ni ayrim o‘zga tillarda murakkab, yasama so‘zlar soddalashish jarayoniga muhim o‘rin egallaydi.

## FILOLOGIYA

### XORAZM FOLKLORSHUNOSLARINING DARG‘ASI EDI



**Aynur OYDIN**

Ozarbayjon Milliy bilimlar akademiyasi folklorshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori



**Umid  
BEKMUHAMMAD**

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**UO‘K 821.**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek folklorshunoslige katta hissa qo‘sghan marhum professor Safarboy Ro‘zimboevning hayoti va faoliyati yoritib beriladi.*

***Аннотация:** В статье рассказывается о жизни и творчестве покойного профессора Сафарбоя Розимбоева, внесшего большой вклад в узбекский фольклор.*

***Annotation:** This article describes the life and work of late professor Safarboy Rozimboyev, who made a great contribution to Uzbek folklore.*

***Kalit so‘zlar:** folklor, doston, baxshi, roman, tetrologiya, professor.*

***Ключевые слова:** фольклор, эпос, бакши, роман, тетралогия, проф.*

***The keywords:** folklore, epic, bakshi, novel, tetralogy, professor.*

Xalq og‘zaki ijodiyotining inson tafakkurini yuksaltirishi, ma’naviy barkamol topishidagi o‘rnini kattadir. Bundan tashqari, dostonlarda ajdodlarimizning falsafiy mushohadalari, dunyoqarashi, oliyanob xususiyatlari aks etganki, shu sababli ham ta’limtarbiyada dostonni kuylagan baxshi-yu, uni yozib olib, avlodlar orasidagi davomiyligini ta’minlagan folklorshunoslarning xizmatlari yuksakdir.

Xalq og‘zaki ijodi o‘z nomi bilan og‘zaki ijoddir.

Avlodlar almashuvi, baxshilarning dunyoqarashi, qolaversa, davr ta’sirida dostonlarda o‘zgarish bo‘lishi, ehtimol. Shu boisdan ham folklorshunoslarning dostonlarni yozib olib asrashi, kitob holida nashr ettirishi, dostonlar orasidagi farq, ular orasidagi o‘xshashligi, boshqa jihatlari to‘g‘risida ilmiy tadqiqotlar olib borishi insondan matonatni talab qiladi.



Shukrki, Xorazmda ana shunday sifatga ega bo‘lgan, ko‘plab shogirdlar yetishtirib, kasbiy faoliyatining davomiyligini ta’milagan olimlar orasida filologiya fanlari doktori, professor Safarboy Ro‘zimboyev ham bor.

1942-yilda Qo‘shko‘pirning Ko‘nazey (Xayrobod) qishlog‘ida tavallud topgan Safarboy aka o‘sha davr qishloq bolalari singari asosan qariyalardan, maktabda o‘qituvchilardan o‘ziga xos ma’naviyat maktabi bo‘lib xizmat qilgan dostonlar, rivoyatlar, ertaklar eshitgan holda voyaga yetdi. Doston va ertaklardagi g‘oyalar asosida kamol topdi.

“Xorazm davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini

tugatgach, ilmga ishtiyoqli qo‘shko‘pirlik yosh yigitni institutda o‘qituvchi sifatida olib qolishdi. U yoshlarga xos shijoat bilan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, Xorazm vohasida yashagan xalqlarning og‘zaki ijodiyotini to‘plash va tadqiq etish bilan shug‘ullandi. Natijada qilgan ilmiy mehnatlari o‘z samarasini berib, 1972-yilda Qoraqalpog‘istonlik professor Q.Maqsetov rahbarligida “Xorazm vohasi o‘zbek xalq qo‘shiqlarining g‘oyaviy, badiiy xususiyatlari” mavzusida nomzodlik ishini yoqladi, birin-ketin risolalar chop ettirdi. Ular ichida “Xurshidi jahon galdi”, “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” kitoblari uni nafaqat ilm ahli orasida, balki san‘atsevar omma orasidayam keng tanilishiga sabab bo‘ldi”(1).

Ma’lumki, Safarboy Ro‘zimboyev va uning tengi avlod Komiljon Otaniyozov ijro etgan maftunkor qo‘shiqlar ohangida voyaga yetgan avlod. Qolaversa, bolaligidan ertak, dostonlar tinglab, ular ta’sirida kamol topgan Safarboy akaning e’tiborini torgani, Komiljon hofizning Maxtumquli va Mullanafas she’rlari, g‘azallarini qo‘shiq qilib ijro etganida bo‘lsa kerak. Ana shu ohanrabolik bo‘lg‘usi olimni Komiljon aka bilan uchrashishga undadi. Bu haqda professor Safarboy Ro‘zimboyev shunday xotirlaydi:

– “Komiljon aka bilan birinchi marta 1968-yilda uchrashganmiz. O‘sha yillari men xalq ijodiyoti sohasida tadqiqot ishlarini boshlab, baxshilar, xalfalar, xalq shoirlari repertuarlarini o‘rganishga kirishgan edim. Komiljon akaning ham xalq poeziyasi uslubiga yaqin bo‘lgan she’rlarini bilganligimdan, biror bir maqola yozish umidida u bilan uchrashiga jur’at etdim. Uyiga borib o‘zimni tanishtirib, maqsadimni aytdim. Ammo Komiljon akadan biror ijobiy javob olish mumkin bo‘lmadi. Aftidan, ilgari ham bir kimsa kelib, uning biografiyasiga oid

ma'lumotlar, fotosuratlarni olib, dom-daraksiz ketgan bo'lsa kerakki, u sovuqqina qilib:

– Sendan oldin ham kitob yozadigan g'o'ch yigitlardan bir-ikkitasini ko'rganman, – deb qo'ydi.

Odatda, Komiljon aka bir so'zlar edi. Shu sababli gapni cho'zishning befoydaligini sezib, asta xayrashib, jo'nab qoldim.

Komiljon aka bilan bo'lgan ikkinchi uchrashuvimiz chamasi o'sha muloqotimizdan bir yil keyin tasodifan yuz berdi. Qish chillasi avjiga chiqqan paytlar edi. To'y-tomoshaning ham mavsumi qizigan davr. Dam olish kuni ona qishlog'im – Ko'nazeyga borib, Komiljon aka xizmat qilayotgan to'yga duch kelib qoldim.



Komiljon aka kolxoz raisining yonida o'tirib, kurash tushayotgan yigitlarni zavq bilan kuzatar edi. Keyin qo'chqor urishtirish, "oltin qovoq" bo'ldi. Nihoyat, an'anaga muvofiq san'atkorlar mehmonxonaga taklif etildi va o'sha davraga men ham tushib qoldim. Xonandaning yonida doirachi Otanazar Obdalniyozov, qo'shnaychi Qurbonboy Bobojonov va menga notanish yana bir kishi hamda raqqosa bor edi. Dastlab "Peshrav" yangradi. Kuy havas va mehr bilan ijro etilgach, "Suvora"ga o'tildi. So'ngra keksa g'azalxon Orzu-Yangiboy Xudoyberganovning:

Ey ko'ngil, bo'lg'il adab bo'stonida gulnorlar,  
Ko'rsa gulni toj etar boshiga har dildorlar.

matla'li g'azaliga o'tildi va shu bilan qo'shiq yakunlanib, yana suhbat boshlandi. Komiljon aka mumtoz adabiyotni, arabiyl, forsiy izofalarning ma'nosini yaxshi tushunar, mumtoz shoirlarning ko'plab g'azallarini yoddan o'qir edi. O'sha kuni negadir u otasi – Otaniyoz oxun Niyoziyning:

Man xazinni, do'stlar, sayr ichra yo'ldosh aylangiz,  
Kim grift o'l mish dimog'im, bazm aro bosh aylangiz,  
matla'li g'azalini o'qib, uni quyidagi misralar bilan tamomladi:

Gar junun ortar Niyoziyga tani uryonig‘a,  
 Otg‘ali sangi faloxunni qattig‘ tosh aylangiz,  
 Shu payt men bir zum bo‘lsa-da, davraga cho‘kkan jimlikni buzib, luqma tashladim:

– Komiljon aka, otangizning g‘azallarini ichki bir mehr bilan, qiroatini joyiga qo‘yib o‘qiysiz-a?! U birdan yalt etib menga qaradi va:

– San boyoqi bolomisan? – deb qo‘ydi shovotliklarga xos “o” tovushiga urg‘u berib. Darvoqe, hofizning meni taniganidan ko‘nglim sal yorishdi. Hali gapimiz tugamayoq qo‘shnaychi Qurbanboy ota oraga qo‘sildi:

– Bu, usto, g‘azaldagi “sangi” so‘zi o‘zimizning Xorazmcha sangimi? (Xorazmda “sangi” so‘zi “sayoq” ma’nosini ham bildiradi).

– Yo‘q, bu yerda tosh ma’nosini bildiradi, – deb javob berdi ustoz.

Shu fursatda Komiljon akaning menga ochilishibroq muomala qilgani yo‘l ochib berdimi, ishqilib so‘zni davom qildirdim:

– Qurbanboy otaning so‘zlarida jon bor. Sang so‘zi forscha bo‘lib, haqiqatan ham tosh degan ma’noni bildiradi. Lekin so‘zning ko‘chma ma’nosini degan gaplar ham bor. Masalan, daryo, dengizlarda suzib yuruvchi katta muz parchalari ham sang deb yuritiladi. Hatto xalq orasida unga bag‘ishlangan qo‘sish ham bor:

Daryoning o‘rtasinda  
 Sang boradi, sang galadi.  
 Sang bilan sakkiz o‘rdak  
 Dang boradi, dang galadi.

Sang hech qachon bir joyda turmaydi. Doimo suzib yuradi. Qisqasi, u qattiqlik xususiyati jihatidan tosh, bir joyda muqim turmasligi jihatidan “sayoq” ma’nosiga ega. “Nega sanqib yuribsan?” iborasi ham shu so‘z bilan bog‘liq.

Komiljon aka so‘zlarimga diqqat bilan qulq solib o‘tirardi. Qanoat hosil qildi shekilli, indamadi (2).

Ana shundan keyingina, Safarboy Ro‘zimboyevdagi SO‘Zga e’tibor, mumtoz adabiyot, folklorga bo‘lgan ishtiyoqni ko‘rib, Komiljon Otaniyozov bilan o‘rtalaridagi iliq munosabat o‘rnatildi. Keyinchalik yana muloqotlar bo‘lib, Safarboy akada mashhur hofiz to‘g‘risida biror narsa yozish ishtiyoqi tug‘ildi.


O‘sha voqealarga ham mana necha yillar bo‘ldi. Bu orada Safarboy Ro‘zimboyev hayotida shu singari mashhur insonlar bilan ko‘plab muloqotlar bo‘lib o‘tdi. Qolaversa, domlaning o‘zi ham folklor sohasida izlanishlar olib borib, bir qancha yutuqlarga erishdi, ilm olamida dovrug qozondi.

Bu orada u ilmiy faoliyatini davom etdirib, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor Q.Maqsetov rahbarligida “Xorazm dostonlarining leksikasi, tipologiyasi va poetikasi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlab, respublikadagi yetuk folklorshunos olim darajasiga chiqdi. Mavzu, uning ko‘lami, ahamiyati, qadri, fanda tutgan o‘rni bois

domlani majoziy ma'noda Xorazm dostonlarini "tiriltirgan" shaxs deyardik. Chunki, "Xorazm dostonlari" monografiyasi, undagi salohiyat, salobat shunday deyishimizga sababdir.

Ma'lumki, ba'zi ilmiy daraja, unvon olgan olimlarda "endi hammasiga yetishdim, shekilli, bu yog'iga shuyam bo'ladi", – degan tushuncha shakllanib qolgan. Ya'ni, ko'pchiligidan tanlagan ilmiy mavzusi kabi, shunga yarasha dunyoqarash ham tordir. Yoki ko'pchiligi kundalik tashvishlar bilan band bo'lib, agarki biror bir ilmiy mavzuda suhbatlashib qolsangiz, gapni aylantirib, o'zi yoqlagan mavzuga buraveradi, yoxud shundan kelib chiqib gaplashaveradi. Buni xalqona til bilan aytganda " magnitafon tasmasining chaynalib qolishi" deyish mumkin. Afsuski, bunday dunyoqarashli, darajali diplom sohiblari hamma joyda bor...

Biroq Safarboy aka bunday toifalardan mutlaqo yiroq. Chunki doktorlik darajasi, professor unvonini olganidan beri domlaning 20 dan ortiq risola, qo'llanma, monografiyalari, 80 dan oshiq ilmiy ommabop maqolalari chop etildi. Professor S.Ro'zimboyev Xorazm folklorining turli janrlariga oid yozib olgan materiallarning o'zi 40 bosma taboqdan oshiq ekanligi ham uning fidoyiligidan darak beradi. Ushbu materiallar ayni paytda O'zFA til va adabiyot institutining folklor bo'limi arxivida 1636-raqamli fond sifatida asralmoqda. Bundan tashqari Safarboy akaning xonadonidagi shaxsiy arxivida o'zi yozib olgan 60 ga yaqin doston va boshqa janrlarga oid manba mavjud. Shuningdek, professor Ro'zimboyev to'plagan Xorazm "Go'ro'g'li" turkumiga oid dostonlardan to'rttasi Turkiyada nashr qilinganining o'ziyoq olimning ilmiy faoliyat doirasi keng ekanligini ko'rsatib turibdi.



tuhfa bo'ldi.


Professor Ro'zimboyev ana shu ishlarni o'z kasbining davomiyligini saqlash maqsadidagi shogirdlar yetishtirishdek ezgu ish bilan qo'shib olib bordi. Domlaning shogirdlari orasida nafaqat o'zbekistonlik, balki Omonmurod

Safarboy aka nafaqat Xorazm, balki qo'shni Qoraqalpog'iston, shu kabi Turkmanistonning Toshhovuz viloyatlarini aylanib, u yerdagi baxshilar bilan uchrashib, ular kuylagan dostonlarni magnit tasmasiga yozib oldi. Ular bugungi kunda "oltin fond" deb atalishga arzigelik manbalar hisoblanadi.

Domla yozib olib, nashr ettingan "Go'ro'g'li" turkumiga oid dostonlar, "Yusuf va Ahmad", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Xirmondali", "Bozirgon", "Avazxon" singari 10 jildlik dostonlar san'atsevar xalq uchun katta

Boymurodov kabi turkmanistonlik, Oyimqul Pirnazarov, Qorjov Jumajonov singari qozog‘istonlik, Aydar Murtazayev, Yunus Paxratdinov kabi qoraqalpoq olimlari, Mamatqul Jo‘rayev, Abir Musaqulov, Isomiddin Yormatov, Umurzoq Jumanazarov, Dehqon Qozoqov singari vatanimizning turli viloyatlarida yashab, ilmiy ish qilayotgan fan doktorlari, ko‘plab fan nomzodlari bor.

1992-yilda pedagogika instituti Urganch davlat universitetiga aylantirilgach, qolaversa, 1997-yilda Xorazm Ma’mun akademiyasi tashkil etilgach, professor S.Ro‘zimboyev bu dargohlarda kafedra mudiri, bo‘lim boshlig‘i sifatida faoliyat ko‘rsatdi. “Xorazm folklori” to‘plamining muntazam nashr etilishiga bosh bo‘ldi.



Shuningdek, ko‘p yillik mehnatlari, qolaversa sa’y-harakatlari sabab 2004-yilda “Go‘ro‘g‘li” dostoni nashr ettirilishiga erishdi. Nashrda ilk bora Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining o‘n olti shoxobchasi jamlanib, ulardan 16 tachasi ilk bor e‘lon qilingandi. 476 sahifalik to‘plamda S.Ro‘zimboyev Xorazm dostonchilik an‘analarining asosiy ko‘rinishlari va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi maqolasini ham kiritilgan bo‘lib, san‘atsevar omma shu orqali dostonlar to‘g‘risidagi tasavvurini boyitadi.

“Professor Ro‘zimboyevning faoliyati shular bilangina cheklanib qolmadni. Domla o‘z iqtidorini tarjimonlik borasidayam sinab ko‘rdi. Qoraqalpoq shoiri J. Xushniyozovning she’rlarini, U.Bekbauliyevning “Beruniy” romanini, ko‘plab qoraqalpoq latifalarini o‘zbekchaga o‘girib matbuotda chop etdirdi. G.P.Snesarevning “Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari” kitobini rus tilidan o‘zbekchaga o‘girib nashr etdirdi.

Domlaning bevosita rahbarligida Munis va Ogahiyarning “Firdavs ul-iqbol” asari joriy imloga tabdil qilinib, 2010-yil “O‘qituvchi” nashriyotida ko‘p nusxada nashr qilindi.

So‘nggi yillarda ustozning o‘tmish mavzusiga qiziqishlari samarasi o‘laroq XIX-XX asr Xiva xonligi tarixidan hikoya qiluvchi “Langar”, “Mezon”, “Bo‘hron”, “Arosat” nomli roman-tetralogiysi yaratildi. S.Ro‘zimboyev o‘zbek

ilm-u fani rivojiga qo'shgan katta hissasi uchun 2020-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi"(3).

Professor Ro'zimboyev eng asosiysi, o'zining 4 nafar farzandlari ichidan ham ilmga ishtiyoqli Xurrambek, Sarvarbek singari filolog olimlarni, Bunyodbek ismli tarixchi nevarasini tarbiyalab, kamol toptirdi. Demak, Ro'zimboyevlar sulolasasi orasidan yana ilmli, ma'rifatli, Safarboy akaga o'xshagan olimlar yetishib



chiqaveradi. Afsuski, o'zbek folkorshunosligi, adabiyotiga katta hissa qo'shgan S.Ro'zimboyev 2021-yilda vafot etdi. Garchi Ro'zimboyev domla jisman vafot etgan bo'lsa-da, olim va adib Safarboy Ro'zimboyev hamisha barhayot.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. U.Bekmuhammad, "Dostonlarni tiriltirgan domla", "Xurshid Davron kutubxonasi" sayti, 2014-yil oktabr.
2. S.Ro'zimboyev, "Komiljon ustoz", "Xorazm" nashriyoti, Urganch-1992-yil.
3. R.Hasan, "Uch avlodning ustozlari", "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2020-yil 25-sentabr.

**IQTISODIYOT****QISHLOQ XO‘JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBI  
MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Yusufboy  
BEKCHANOV**

**Urganch  
avtomobillar va  
yo‘llar texnikumi  
bosh hisobchisi.**

**UO‘K: 338.2**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobining mazmuni, ushbu munosabatlar va ularni takomillashtirish masalalari haqida so‘z yuritiladi hamda buxgalteriya hisobi munosabatlarini takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflar bayon qilinadi.*

***Аннотация:** В статье говорится о содержании бухгалтерского учета в сельском хозяйстве, этих отношениях и вопросах их совершенствования, а также сделаны выводы и предложения по совершенствованию бухгалтерских отношений.*

***Annotation:** This article talks about the content of accounting in agriculture, these relationships and issues of their improvement, as well as conclusions and suggestions on improving accounting relationships.*

***Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi, buxgalteriya hisobi, munosabatlar, moliyaviy munosabat.*

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, бухгалтерский учет, отношения, финансовые отношения.

**The keywords:** agriculture, accounting, relationship, financial relationship.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda va ushbu sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz qishloq xo‘jaligida islohotlarni qat’iy davom ettiramiz. Umuman, agrar sohada yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish loyihalariga 2023-yilda 1 milliard dollar ajratiladi [1]”. Haqiqatdan ham, qishloq xo‘jaligining yirik tarmog‘i agrar sohaga tegishli bo‘lib, ushbu sohada foyda, ya’ni yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish uchun subyektlar o‘rtasida bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yanada takomillashtirish zarur. Bu borada iqtisodiy munosabatlar tarkibidagi moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish uchun samarali buxgalteriya hisobi munosabatlarini yo‘lga qo‘yish lozim.

Qishloq xo‘jaligi sohasini samarali rivojlantirishda buxgalteriya hisobi muhim o‘rinni egallaydi. Ushbu hisob shakli ichki va tashqi subyektlarning moliyaviy munosabatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobining amalda yuritilishi yuzasidan me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ushbu hisob to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat bo‘ladi. Buxgalteriya hisobi tushunchasiga sohaga oid yangidan qabul qilingan qonunda eng mukammal ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, buxgalteriya hisobi barcha xo‘jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek, uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iborat [2]. Shuningdek, buxgalteriya hisobi xo‘jalik muomalali operatsiyasining buxgalteriya hisobvarag‘ida bir vaqtda va o‘zaro bog‘liq holda pulda baholab aks ettirish yo‘li bilan ikkiyoqlama yozuv usulida yuritiladi.

Shu bilan bir qatorda, korxona, tashkilot va muassasalarda buxgalteriya hisobi xo‘jalik faoliyatini kuzatish, boshqarish va nazorat qilish kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadida yuritiladi. Buning mazmunida bevosita iqtisodiy faoliyat natijasi bo‘lgan ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarish yotadi.

### **Operativ hisob**

Ayrim xo‘jalik operatsiyalari va jarayonlarini sodir bo‘layotgan vaqtida boshqarish maqsadida joriy kuzatish va nazorat qilish tizimi bo‘lib hisoblanadi. Bu hisobning korxona va uning tarkibiy bo‘linmalariga joriy rahbarlik qilish maqsadida ma’lumotlarni operativ ravishda qabul qilib olish va ulardan foydalanish uning farq qiladigan belgisi bo‘lib ham hisoblanadi

### **Statistik hisob**

Ommaviy xo‘jalik hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va ishslash tizimidan iborat bo‘lib, xo‘jalik va tarmoqlarni rivojlanish jarayonini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Undan turli ommaviy hodisalarni kuzatish uchun foydalaniladi. Uning yordamida xo‘jalik faoliyatining turli miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari hisoblab chiqiladi

### **Buxgalteriya hisobi**

Ichki boshqarish va tashqi iste’molchilarining maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan korxona, tashkilot va muassasalar xo‘jalik faoliyati ustidan uzluksiz va o‘zaro bog‘liq kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat bo‘ladi

Ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibi o‘z navbatida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalariga bo‘linadi.

Buxgalteriya hisobi butun mamlakat bo‘yicha hamda har bir korxona, tashkilot va muassasa bo‘yicha belgilangan ishlab chiqarish dasturining bajarilishini ham aks ettiradi. Aslida, buxgalteriya hisobini amalga oshirish uchun xo‘jalik hisobi o‘z oldiga qo‘ylgan vazifalardan kelib chiqib, ularning quyidagi uch turi mavjud bo‘ladi: operativ, statistik va buxgalteriya hisobi (1-rasm).

### 1-rasm. Buxgalteriya hisobining mavjud turlari

Ushbu rasmga ko‘ra, buxgalteriya hisobi turi iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tadbiq qilinishi mumkin. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi operatsiyalarining buxgalteriya hisobida aks ettirish xususiyatlari ularning

quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi [4]:

mavsumiylik;

uzoq ishlab chiqarish sikllari;

korxona ichidagi aylanmaning katta ulushi va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi munosabatlarini amalga oshirishning mohiyati esa agrar soha korxonalari, tashkilotlari va muassasalarining xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan resurslarni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan axborotni shakllantirishdan iborat



bo‘ladi. Chunki mazkur mablag‘lar sarflanishi, ishlab chiqarish hajmi va faoliyat natijalarini oqilona hamda to‘g‘ri boshqarish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish qishloq xo‘jaligi va qishloq joylarining barqaror rivojlanishini ta’minlashga qodir bo‘lgan va moslashtirilgan iqtisodiy mexanizmga ega sifat jihatidan yangi iqtisodiy tizimni shakllantirishni rag‘batlantiradi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy

maqsadi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni samarali faoliyat ko'rsatishi, shu jumladan, ajratilgan byudjet, kredit va boshqa moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish uchun qulay bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishdan iborat [3].

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi munosabatlari hisob-kitob natijalarini amalga oshirish uchun qo'llanilib, uni takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

hisob-kitob uchun zarur bo'lgan moliyaviy vositalarni qo'llab-quvvatlash;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlash;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotiladigan bozorni qo'llab-quvvatlash;

hududlarning ijtimoiy infratuzilmasi va uni tarkibini qo'llab-quvvatlash.

Shuningdek, qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi munosabatlarini takomillashtirishda qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va sug'urtalash masalalari muhim yo'nalish hisoblanadi. Bu esa sezilarli moliyaviy resurslarni toplash imkoniyatini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-sonli qonuni (yangi tahriri). Manba: <https://lex.uz/acts/2931253>
3. Sanakoyeva D.K., Kolpakova Ye.A., Tibilova A.A. Osnovnye napravleniya sovershenstvovaniya gosudarstvennogo regulirovaniya razvitiya selskogo xozyaystva. Upravleniye ekonomicheskim razvitiyem. // Vestn. Volgogr. gos. un-ta. Ser. 3, Ekon. Ekol. 2015. № 4 (33). ISSN 1998-992X. – s. 163.
4. [https://nalog-nalog.ru/buhgalterskij\\_uchet/vedenie\\_buhgalterskogo\\_ucheta/pravila\\_vedeniya\\_buhucheta\\_v\\_selskom\\_hozyajstve/](https://nalog-nalog.ru/buhgalterskij_uchet/vedenie_buhgalterskogo_ucheta/pravila_vedeniya_buhucheta_v_selskom_hozyajstve/)

**IQTISODIYOT****MINTAQА TURIZMI SALOHIYATINI OSHIRISHNING  
USTUVOR YO'NALISHLARI**

**Jahongir  
XUSAINOV**  
**Urganch davlat  
universiteti  
mustaqil  
izlanuvchisi.**

**UO'K: 338.48**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyati mintaqasi turizmi salohiyatini oshirishni ahamiyati va uning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan.

**Аннотация:** В статье освещается важность повышения туристического потенциала Хорезмской области и его приоритеты.

**Annotation:** This article highlights the importance of increasing the tourism potential of the Khorezm region and its priorities.


**Kalit so'zlar:** mintaqा, turizm, turizm salohiyati, sayohat, turizm turlari, turistik marshrut.

**Ключевые слова:** регион, туризм, туристический потенциал, путешествия, виды туризма, туристический маршрут.

**The keywords:** region, tourism, tourism potential, travel, tourism types, tourist route.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishdagi asosiy vazifa turistlarni Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi qadimgi shaharlardagi tarixiy obidalar, me'morchilik, diniy va madaniy yodgorliklar hamda boshqa diqqatga sazovor zamonaviy joylar bilan tanishtirish orqali ularga qiziqarli ma'lumot berish hisoblanadi. O'zbekiston boy turistik salohiyatga va turizmni rivojlantirishning barcha imkonyatlariga ega bo'lib, shu tufayli mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish uchun turli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, qarorlar qabul qilinmoqda [1]. Bugungi kunda viloyatda moddiy madaniy meros obyektlari 259 tani tashkil qiladi. Ushbu obyektlarning 158 tasi respublika va 101 tasi mahalliy ahamiyatdagi obyektlar toifasiga mansub. Bugungi kunga qadar mazkur obyektlarda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- “Islom Xo'ja yozgi qarorgohi”ni ta'mirlash bo'yicha davlat budjeti mablag'laridan 689,5 mln so'mlik shartnoma tuzilgan bo'lib, 292,5 mln so'm (42 %) moliyalashtirilgan.
- Xiva tumani Soyat qishlog'ida joylashgan “Chodra hovli”ni ta'mirlash bo'yicha davlat budjeti mablag'laridan 992 mln so'mlik shartnoma tuzilgan hamda 755,8 mln so'mlik (76 %) ta'mirlash ishlari bajarilgan.
- Xiva shahri Kaptarxona mahallasi hududida joylashgan “Said Niyoz Sholikorboy” masjidini ta'mirlash bo'yicha davlat budjeti mablag'laridan



168,6 mln so‘mlik shartnoma tuzilgan hamda bugungi kunga qadar 51,4 mln so‘mlik (30 %) moliyalashtirilgan.

– Shovot tumanida joylashgan “Vayangan bobo” maqbarasini ta’mirlash bo‘yicha davlat budjeti mablag‘laridan 421,6 mln so‘mlik shartnoma tuzilgan hamda 126 mln so‘mlik (30 %) ta’mirlash ishlari bajarilgan.

– Xiva shahri Ichon qal’a mahallasi hududida joylashgan “Shayx Kabir” masjidini ta’mirlash bo‘yicha davlat budjeti mablag‘laridan 236,1 mln so‘mlik shartnoma tuzilgan hamda 224,3 mln so‘m (95 %) moliyalashtirilgan.

– Xiva shahar Qibla tozabog‘ mahallasida joylashgan “Qibla tozabog‘” madaniy meros obyektini ta’mirlash bo‘yicha davlat budjeti mablag‘laridan 3,9433 mlrd so‘mlik shartnoma tuzilgan hamda 2,461 mlrd so‘m (62 %) moliyalashtirilgan.

– Xiva shahri Qibla tozabog‘ mahallasida joylashgan “Ibrohim xo‘ja” madrasasasini ta’mirlash bo‘yicha davlat budjeti mablag‘laridan 773.8 mln so‘mlik shartnoma tuzilgan hamda 661,8 mln so‘m (86 %) moliyalashtirilgan.

– Xiva shahri Mevaston mahallasida joylashgan “Said Mohi Ro‘yi Jahon” majmuasini ta’mirlash bo‘yicha davlat budjeti mablag‘laridan 768,8 mln so‘mlik shartnoma tuzilgan hamda 468,3 mln so‘m (61 %) moliyalashtirilgan.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” shiori ostida ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasiga tasdiqlandi. Jumladan, Xorazm viloyatida 2022-yilda shaharlar va tumanlar kesimida mamlakat bo‘ylab ichki turizm oqimini tashkil qilish bo‘yicha tasdiqlangan reja-grafikka asosan jami 545,5 ming nafar aholi sonining 28 foizini sayohatini tashkil qilish belgilangan. 2022-yilda shahar va tumanlar kesimida mamlakat bo‘ylab ichki

turizm oqimini tashkil qilish bo‘yicha jami 577,6 ming nafar fuqarolarning hududlar bo‘ylab ichki sayohati uyuşhtirildi.

Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘ylab ziyyarat turizmi bo‘yicha alohida 3 kunlik, 2 kunlik va 1 kunlik turizm marshutlari ishlab chiqildi. Xalqimizning boy moddiy-ma’naviy merosi, urf-odat va an’analari, milliy hunarmandchiligi, tasviriy-amaliy san’atini asrab-avaylash va rivojlantirish, ularni respublikamizda va xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilish, shuningdek, sayyoqlik, hunarmandchilik va madaniy sohalardagi hamkorlik aloqalarini takomillashtirish maqsadida 2022-yil davomida viloyatda 9 ta xalqaro va yirik ommaviy tadbirlar o’tkazildi va ushbu tadbirlarga 10 000 nafar xorijiy sayyoqlar jalb qilindi.

Xorazm viloyati bo‘ylab 2022-yilda turizmning alohida turlarini rivojlantirish maqsadida bugungi kunda Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlarini qamrab oladigan “Qal’a tur”, ziyyarat turizmi bo‘yicha “Ziyyarat tur”, zardushtiylik obyektlari bo‘ylab sayohat qilinadigan “Avesto tur” turizm marshrutlariga kiritish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Xorazm viloyatining turizm obyektlari bo‘yicha ma’lumotlarni onlayn orqali ko‘rish imkoniyatini beradigan QR-kodli platforma ishlab chiqildi.

Ichki va ziyyarat turizmini yanada rivojlantirish, har bir tuman va shaharning turizm salohiyati va resurslaridan kelib chiqqan holda viloyatimizga turistlarni jalb qilish bo‘yicha hududlarda quyidagi turizm turlarini rivojlantirish bo‘yicha yo‘riqnomalar ishlab chiqildi.

- ta’lim turizmi bo‘yicha viloyatda ta’lim turizmini yanada rivojlantirish, ta’lim muassasalarining horijiy talabalar o‘rtasida targ‘ibot tadbirlarini yanada kuchaytirish maqsadida Xorazm viloyatida joylashgan ta’lim muassasalarini tomonidan “Ta’lim turizmi” bukletlari ishlab chiqildi.

- agro va ekoturizm bo‘yicha mazkur yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadida bir qator idoralar va tashkilotlar bilan birga bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, agroturizmni rivojlantirish maqsadida viloyatdagi salohiyatli agroturizm obyektlari, fermer va dehqon xo‘jaliklari o‘rganildi va ro‘yxati shakllantirildi. Ekoturizmni rivojlantirish maqsadida viloyatdagi salohiyatli o‘rmon xo‘jaliklari va salohiyatli ekoturizm maskanlari o‘rganildi va ro‘yxati shakllantirildi. Xorazm milliy tabiat bog‘ida ekoturizmni rivojlantirish maqsadida turistik marshrutlar ishlab chiqildi.


- ichki turizm bo‘yicha Respublika maxsus komissiyasining qarori bilan mamlakatimizda ichki turizmga ruxsat berilgani munosabati bilan sayohatlarni tashkil qilishda sanitariya-gigiyena qoidalariiga qat’iy rioya etgan holda viloyatimizda ichki turizmni qayta tiklash va faollashtirish choralarini ko‘rilmoxda. Ushbu holat turistik salohiyatni mavjudligini ko‘rsatadi [3]. Mazkur imkoniyatlar tashrif buyuradigan turistlar uchun dam olish va hordiq chiqarishni ta’minlovchi omil bo‘lib, ularga tayyor turizm mahsuloti taklif qilinadi.

Mintaqada tarixiy-madaniy, agroekologik, diniy va gastronomik turizmni rivojlantirish salohiyati natijalari viloyatda kelajakda turizmning yangi maxsus turlarini taraqqiy qilishiga imkon beradi. Xususan, mazkur yo‘nalishda olib borilgan tahliliy baholash asosida Xorazm viloyatida 2024-yilgacha turizm sohasining quyidagi turlarini rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz:

- ovchilik turizmi (ovchilik shug‘ullanish huquqiga ega turistik firmalar soni, ovchilik buyumlari sotiladigan do‘konlar soni, ov hududlarida turistlar uchun ovqat tayyorlaydigan maskan soni va holati hamda ovga mo‘ljallangan avtotransport vositalari soni);
- hunarmandchilik turizmi (hunarmandlar soni va yo‘nalishlari, hunarmandlarni chet tillarini bilish saviyasi hamda hunarmandlar tomonidan mahorat darslarining o‘tkazilish saviyasi);
- otchopar turizmi (otchopar maydoni, ot fermalari va otlar soni, veterinarlar soni, murabbiylar soni hamda Yangiariq tumanida otchoparlik o‘yini o‘tkazish uchun qumli hududlarning mavjudligi).

Darvoqe, mintaqada turizmni rivojlantirish mohiyati turizm sohasining dinamik o‘zgarishini aks ettirib, yillar bo‘yicha o‘zgarishlarga ega bo‘lish kabi holatlarda namoyon bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasi o‘z ichiga turistik korxonalar soni, jami xizmat ko‘rsatilgan turistlar soni, ichki turizm hisobiga tashrif buyurgan turistlar soni, mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni hamda mehmonxona va joylashtirish vositalariga jami joylashtirilgan turistlar sonini qamrab oladi.

Viloyatda turizm va mehmonxona xo‘jaligida amalga oshiriladigan tadqiqotlar sohani har tomonlama va mukammal o‘rganishni taqozo qiladi. Shunga muvofiq mintaqqa turizmi salohiyatini oshirish orqali yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish belgilangan. Ya’ni 2023-2030-yillarda Xorazm viloyatida turizmning quyidagi yangi turlari keng rivojlanadi (1-rasm).



**1-rasm. 2023-2030-yillarda Xorazm viloyatida turizmni yangi turlarini rivojlantirish yo‘nalishlari<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.


Mazkur turizm turlaridan foydalanish ustuvor yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun mintaqaga tashrif buyuruvchi turistlarning demografik ko‘rsatkichlari hamda tarixiy-madaniy, agroekologik, diniy va gastronomik turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash talab qilinadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, mintaqada turizmni rivojlantirish omili sifatida turizm salohiyati hisoblanib, bu borada ayrim ilmiy manbalarda vakolatli davlat organlarining turizm sohasidagi vakolatlaridan biri bo‘lib, tarixiy-madaniy merosni targ‘ib qilishni, turistik salohiyatni saqlash va rivojlantirishni tashkil etish ekanligi ko‘rsatilgan [2].

Shuningdek, Xorazm viloyatida turizmi salohiyatini oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- mamlakatning turizm salohiyati tarkibini isloh qilish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, turizm sohasida yagona davlat siyosatiga yo‘naltirilgan yaxlit konsepsiyanı shakllantirish;
- turizm xizmatlarining xalqaro va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlarini muntazam olib borish, tarixiy-madaniy merosni keng targ‘ib qilish va mamlakatni turizm qiyofasini saqlab qolish va yanada rivojlantirish;
- ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlari ishlab chiqilishini o‘zaro muvofiqlashtirish va ularning monitoringini yuritish, turizm turlari doirasini jadal rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish;
- turizm faoliyati rivojlanishini muvofiqlashtirish, mintaqada yangi turizm yo‘nalishlarini tashkil etishni ta’minlash, pasportlashtirish, turizm obyektti bo‘yicha yagona milliy reyestr shakllantirish;
- turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlar joylashtiriladigan joylar, ovqatlanish punktlari, respublika hududi bo‘ylab harakatlanish va turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlarning xavfsizligi va sog‘lig‘ini ta’minlashga yo‘naltirilgan turizm xizmatlari sifati va xavfsizligi standartlari ishlab chiqilishini o‘zaro muvofiqlashtirish;
- turizm sohasini davlat tomonidan va bozor munosabatlari asosida tartibga solishni maqbullashtirish, turizmni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf qilish;
- turizm sohasida BMT Butunjahon turizm tashkiloti, turizm bo‘yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar hamda turizm sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni turizm faoliyati amaliyotiga keng joriy qilish;
- turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish.

Fikrimizcha, viloyatda turizm salohiyatini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi (2-rasm):



## 2-rasm. Viloyatda turizm salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishlari<sup>1</sup>

Mazkur rasmga asosan turizm salohiyatini rivojlantirishda davlat tomonidan tartibga solishdagi bajariladigan milliy va mintaqaviy vazifalar yakka tartibdagi, guruhiy yoki shaxsiy manfaatlardan ustun turishi lozim. Ammo, umumiyy siyosat doirasida mulkchilik shaklidagi turistik korxona samarali faoliyat ko‘rsatishi kerak. Ushbu holatda korxonaning roli yuqori bo‘lib, ularning ta’siri turizmni rivojlantirishda muhim o‘rinni egallaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamatqulov X.M., Abduxamidov S.A., Xamitov M.X. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: Samisi, 2020. – 4 b.
2. Professorlar: M.Q.Pardaev va H.N.Musaevlar tahriri ostida. Mualliflar jamoasi. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. - T.: Iqtisod-moliya, 2008. - 69 b.
3. Xudayberganov D.T., Yuldashev X.Ya. Mintaqalarda dam olish va hordiq chiqarish obyektlarini rivojlantirish xususiyatlari. / O‘zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Chirchiq shahri, 2019-yil 11-12-oktabr. - 245 b.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

**IQTISODIYOT****CHAKANA SAVDO TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING  
NAZARIY ASOSLARI**

**Shohjhon  
AXMEDOV**

**Urganch davlat  
universiteti  
tayanch  
doktaranti.**

**UO'K: 338.48**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chakana savdo tarmog'ini rivojlantirishni ahamiyati, mazmini, yo'nalishlari hamda ularni nazariy asoslari yoritib berilgan.

**Аннотация:** В статье описаны значение, содержание, направления и теоретические основы развития розничной торговой сети.

**Annotation:** This article describes the importance, content, directions and theoretical foundations of the development of the retail trade network.

**Kalit so'zlar:** savdo, chakana savdo, chakana savdo tarmog'i, chakana tovar aylanmasi, tovar.

**Ключевые слова:** торговля, розничная торговля, розничная сеть, розничный товарооборот, товары.

**The keywords:** trade, retail trade, retail network, retail turnover, merchandise.

Bugungi kunda savdo tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Savdo tarmog'i sifatida chakana savdo eng keng taraqqiy qilgan yo'nalishlardan biridir. Aslida, ushbu savdo savdoning natijasi bo'lib, boshqa savdodan farq qiladi. Chakana savdo – bu tovarlar va xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga do'konlar, onlayn platformalar yoki mobil ilovalar kabi turli kanallar orqali sotish jarayonidir [13]. U ishlab chiqaruvchilar yoki yetkazib beruvchilardan mahsulotlarni izlab topish, ularni omborlarda saqlash, do'konlarda namoyish qilish va iste'molchilarga sotishdan iborat murakkab harakatlar tarmog'ini o'z ichiga oladi. Chakana savdoni rivojlanish jihatlari bo'yicha xorij va respublikamiz tadqiqotchi olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, D.Ferni chakana savdo korxonalarida elektron savdoni rivojlantirish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish masalalarini tadqiq qilgan [4]. V.Snigereva esa tovarlar assortimentini boshqarish orqali savdo xizmatini oshirish masalalarini o'rgangan [5]. Shuningdek, S.Sisoyeva xaridorlarga tovarlarni sotish jarayonida ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha savdo xizmatlarini tadqiqot ilmiy ishida yoritgan [6].

Respublikamizda savdo sohasi muammolari o'rganilib, turli olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topadi. Xususan, B.Abdukarimov ta'rifiga ko'ra, savdo xizmatning alohida turi bo'lib, u bir tomondan, ishlab chiqaruvchilarga

xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, iste'molchilarga, uchinchi tomondan davlatga xizmat qiladi va to'rtinchidan, u boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ham xizmat ko'rsatadi, ularni xizmatlarining iste'molchi sifatida foydalanadi va ular bilan aloqada bo'ladi [8]. A.Soliyev tomonidan savdo xizmati sifatini oshirish xaridorlarga maslahat berish, tovarlarning namunalarini harakatda ko'rsatish, reklama va axborotning turli shakllarini rivojlantirish yo'li bilan tovar tanlab olishda xaridorlarga yordam berishni ham taqozo etish masalasi ilgari surilgan [10]. E.S.Fayziev savdo xizmati – sotuvchi va xaridorning o'zaro harakati natijasi va sotuvchining xaridorlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati, deb ta'kidlagan [12]. F.B.Abdukarimov savdoning asosiy vazifasi sifatida iste'molchilarga xizmat qilish va aholi hayotini ta'minlaydigan alohida xizmat sohasini o'rgangan [9]. O.M.Pardayev esa mahsulotlarni sotish xizmatini mahsulot(tovar)ning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga pul yoki boshqa shunga tenglashtirilgan boylikka almashtirish evaziga mulk egasining (mulkka egalik huquqining) o'zgarishini ta'minlash jarayonida ko'rsatiladigan xizmatlar bilan bog'liq munosabat ekanligini asoslagan [11].

Mazkur mazmun-mohiyat, g'oya, fikr, konsepsiya, nazariy qarashlar va o'rganilgan ma'lumotlarga asoslanib, biz tomonimizdan chakana savdo tushunchasining chuqurlashtirilgan va murakkablashtirilgan ta'rifi ishlab chiqildi. Ushbu holatni inobatga olib, ya'ni yuqoridagi fikrlarni hisobga olib, ya'ni chakana savdo tushunchasiga oid nazariy qarashlarni umumlashtirish asosida uni quyidagi jadvalda keltirilgan yagona ta'rifini ishlab chiqdik (1-jadval).

### 1-jadval

#### Chakana savdo tushunchasiga oid nazariy qarashlar yo'nalishlari<sup>1</sup>


| T/r | Tadqiqotchi olimlar | Ularning bergen ta'riflari                                                                                                                                    |
|-----|---------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1   | D.Ferni             | Chakana savdo savdo korxonalarida elektron savdoni rivojlantirish usuli                                                                                       |
| 2   | V.Snigereva         | Tovarlar assortimentini boshqarish orqali savdo xizmatini ko'rsatish                                                                                          |
| 3   | S.Sisoyeva          | Xaridorlarga ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha savdo xizmatlari majmui                                                                                     |
| 4   | B.Abdukarimov       | Xizmat turi sifatida ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va davlatga xizmat qiladigan, hamda boshqa iqtisodiyot tarmoqlariga xizmat ko'rsatadigan yo'nalish |
| 5   | A.Soliyev           | Turli ijobjiy yo'llar bilan tovar tanlab olishda xaridorlarga yaqindan yordam berish                                                                          |
| 6   | E.S.Fayziyev        | Iqtisodiy harakat sifatidagi sotuvchining xaridorlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati                                                           |
| 7   | F.B.Abdukarimov     | Iste'molchilarga xizmat qiladigan va aholi hayotini ta'minlaydigan savdo shakli                                                                               |

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

|   |                |                                                                                                                                         |
|---|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 8 | O.M.Pardayev   | Mahsulotlarni sotishni ta'minlash jarayonida ko'rsatiladigan iqtisodiy munosabatlar                                                     |
| 9 | Muallif nazari | Savdo tarmog'i sifatida hududiy jihatlar va xususiyatlarga ega bo'lgan, aholining iste'mol ehtiyojlarini qondiruvchi ayrboshlash shakli |

Ushbu jadvalga asosan chakana savdo tushunchasiga oid nazariy qarashlar ushbu tushunchasi iqtisodiy atama sifatida o'rghanishga imkon beradi. Bu borada chakana savdo tarmog'ining rivojlanishi uning tarkibining sifat jihatidan yaxshilanishi bilan birga olib borilmoqda. Xususan, do'konlar ko'lami kengaymoqda, ularning texnik jihozlanishi yaxshilanmoqda va savdo madaniyati yuksalmoqda. Shu bois, sotuvchilarning tovarni sotib olishda xaridorlarning ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyatni savdo xizmati muhim o'rinni egallaydi. Ushbu savdo o'z tarmog'iga ega bo'lib, turli savdo shoxobchalaridan iborat bo'ladi. Chakana savdo tarmog'i – bu turli xil savdo korxonalari va tovarlarni sotish nuqtalarining to'plamidir, xususan tuzilmasi, tovarlar assortimenti va mijozlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish shakllari bo'yicha bir-biridan farq qiladigan do'konlar, chodirlar, pavilyonlar, savdo rastalari va kiosklar [2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevralda chakana savdo tarmog'ini barqaror va mutanosib rivojlantirishga qaratilgan 75-sonli qarori qabul qilingan [1]. Unga ko'ra, chakana savdo – sohada yakuniy iste'mol uchun undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda (sonda) naqd pulga yoki bank plastik kartalari (korporativ bank kartasi bundan mustasno) yoxud kontaktsiz onlayn to'lov tizimlari orqali sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirishdir. Ushbu savdoni asosida hisob-kitob shakllarini ham amalga oshirish yotadi. Chakana savdo iqtisodiy faoliyat sifatida rivojlanadi. Chunki, ushbu savdo xaridor va sotuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilib, ularni bir-biriga nisbatan aloqalarini mustahkamlash ta'minlanadi. Natijada, chakana savdo o'z mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi turli xil jihatlarga asoslangan asosiy yo'nalishlarga ega bo'ladi (1-rasm).



### 1-rasm. Chakana savdo faoliyatining asosiy yo‘nalishlari<sup>1</sup>

Mazkur rasmga asosan chakana savdoni amalga oshirish uchun mohiyatiga ko‘ra, aylanma mablag‘lar, asosiy vositalar va mehnat resurslari uchun investitsiya zarur bo‘ladi, sotish hajmiga asosan daromadlar shakllanib, uni o‘zi tarqatish xarajatlari va foyda kabi qismlarga ajratiladi. Shuningdek, chakana savdoni samarali tashkil etish orqali iqtisodiyotda uni boshqa sohalar kabi rivojlantirish mumkin. Bu borada ushbu savdoni taraqqiy qilishi ta’minlanadi va uni rivojlanishi turli omillar va shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Chakana savdo tarmog‘ining rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir qiladi [3]:

- uy-joy qurilishi istiqbollari;
- aholi sonini o‘zgarish tendensiyalari;
- talab hajmi va tarkibi;
- tovarlarni sotish shakllari;
- turmush darajasi va uning o‘zgarishi tendensiyalari;
- tovar resurslarini olish imkoniyati.

Chakana savdo aholiga to‘g‘ridan to‘g‘ri tovar sotish va xizmat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatini o‘z ichiga oladi [14]. Chakana savdo tovarlar assortimentining shakllanishida qatnashadi. Xaridorlarga tovarlar sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risida axborotlar beradi. Tovarlarni saqlash, qo‘sishimcha ishslash, narxlarni o‘rnatish va boshqa vazifalarini bajaradi. Natijada, tovarlarning oxirgi iste’molchilari bilan oldi-sotdi shartnomasini bajaradi. Chakana savdo mulkchilik shakli, usuli va xizmat ko‘rsatishlari bilan turlanadi. Xususiy hissadorlar, ijara va qo‘shma mulklarga asoslangan chakana savdo hozirgi kunda barcha mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Chakana savdoning moddiy-texnika asosini do‘konlar, univermaglar, maxsuslashgan do‘konlar, supermarketlar, oshxonalar va ko‘pchilik mayda shoxobchalar tashkil etadi. Chakana tovar aylanmasining mohiyatini asosida tovar muomalasida mavjud bo‘lgan munosabatlardan yotadi [8].

Chakana savdo tarmog‘i iste’molchilarga tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘limgan shaxsiy, oilaviy va maishiy foydalanish uchun tovarlarning chakana savdosini, shuningdek, xizmatlarni ko‘rsatishni amalga oshiradi. Chakana savdo tarmog‘i moddiy-texnika bazasining asosiy qismi bo‘lib, u orqali shaxsiy iste’mol uchun mo‘ljallangan jami ijtimoiy mahsulotning salmoqli qismini sotish amalga oshiriladi va takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi [7]. Faqat do‘konda xaridor o‘ziga kerak bo‘lgan tovarlar bilan uchrashadi. Binobarin, savdo xizmatlarining sifati qancha savdo korxonalari mavjudligiga, ularning qay darajada to‘g‘ri joylashganligiga va assortimentga ega bo‘lishiga bog‘liqdir.

Darhaqiqat, chakana savdo korxonalari savdo tarmog‘ining tayanchi bo‘lib hisoblanadi. Bozor o‘zgarishlari savdo tarmog‘idagi o‘zgarishlar va yangi turdagisi do‘konlarning paydo bo‘lishi bilan birga amalga oshiriladi. Tizimsiz chakana savdo korxonalarining xilma-xilligi savdo tarmog‘ining rivojlanishini tartibga

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

solistni imkonsiz qiladi. Chakana savdo iqtisodiyot tarmoqlarining tovarlarni sotish va sotib olish yo‘li bilan sotadigan tarmog‘idir. Takror ishlab chiqarish tizimida u ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’molni birlashtiradi, shuningdek, ishlab chiqarilgan tovarlarni tovarga aylantiradi. Savdo mamlakatning yagona iqtisodiyot tarmoqlari majmuasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ta’lim funksiyalarini ham bajaradi.

Chakana savdoning iqtisodiy roli shundan iboratki, u ishlab chiqarishda yaratilgan tovarlarni uzlucksiz sotishni amalga oshiradi, tovar oqimlarini to‘playdi va ularni iste’molga yo‘naltiradi, ijtimoiy ehtiyojlar va ishlab chiqarish resurslari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlaydi. Chakana savdo tufayli iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida iqtisodiy aloqalar o‘rnataladi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining uzlucksizligi ta’milanadi, alohida iqtisodiy hududlar o‘rtasida tizimli tovar ayirboshlash, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi chuqurlashtiriladi va ijtimoiy mehnatning hududiy taqsimoti mustahkamlanadi. Chakana savdoda tovar aylanmasi jarayoni bajarilib, tugallanadi. Shunday ekan, chakana savdo tovarlar va xizmatlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yakuniy iste’molchilarga sotish bilan bog‘liq bo‘lgan va shaxsiy yoki oilaviy foydalanish uchun mo‘ljallangan tadbirkorlik faoliyati to‘plamidir. Chakana savdo kishilar uchun qimmatli bo‘lgan tovarlar va xizmatlarni erkin sotish yo‘li bilan ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tovarlarni ayirboshlash jarayonidir. Shu sababli, so‘nggi yillarda chakana savdo, ya’ni shaxsiy foydalanish uchun individual xaridorlar uchun tovarlar qismlarini bo‘lish “chakana savdo” deb, nomlana boshlagan.

Aynan chakana savdo mahalliy ishlab chiqaruvchilarni iloji boricha jamiyat talablarini hisobga olishga yo‘naltiradi. Chakana savdo shaxsiy tanlov nazariyasiga asoslanadi. Bu esa iste’molchi ustuvorligi tamoyiliga mos keladi. Demak, chakana savdo jamiyat hayot sifatining ijtimoiy ifodasidir. Ishlab chiqaruvchilar tovarlar ishlab chiqaradilar va ularni ulgurji yoki chakana sotuvchilarga sotadilar. Ulgurji sotuvchilar ushbu mahsulotlarni chakana sotuvchilarga sotadilar, so‘ngra ularni oxirgi iste’molchilarga sotadilar. Bu ishlab chiqarishni iste’mol bilan bog‘laydigan va talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydigan ishlab chiqarilgan foydalanish qiymatini amalga oshiradigan savdodir. Shu bilan birga, bu yerda tovarlarni kim va qaerda sotayotgani va qaysi tarqatish kanallari orqali yakuniy iste’molchilarga yetkazilishi muhim bo‘lmaydi.

Umuman olganda, chakana savdodagi asosiy o‘zgarishlar quyidagilar bilan bog‘liq:

- iste’molchilarning o‘zgarishi, ularning qarashlari va didlari bilan;
- demografik o‘zgarishlar. Unga ko‘ra, aholi qarib, qisqarmoqda, aholi o‘sishi pasaymoqda va ta’lim darajasi oshib bormoqda. Shu bois, chakana savdoning o‘ziga xos mahsulotlari va shakllari kerak);

- ishlayotgan ayollar ulushining ko‘payishi, bu oila daromadining ko‘payishi, bo‘sh vaqtning qisqarishi va xarid qilish vaqtining qisqarishini anglatadi. Shu bois, qulay joylarga ega markaziy biznes tumanlarida kichik do‘konlar ochish tendensiyasi mavjud bo‘ladi;
- do‘kon soatlari o‘zgaradi (kechqurun uzoqroq ishlaydi) va ko‘proq yarim kunlik ishchilar jalb qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevralda “O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 75-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-243235>
2. Абоимова Н.Э. Организация и технология розничной торговли: учебник для учреждений нач. проф. образования / Н.Э.Абоимова. — М.: Издательский центр «Академия», 2013. – 256 с
3. Белкова Г.Д. Организация розничной торговли. Учеб. пособие. — Иркутск: Изд-во ИГУ, 2005. - с.22
4. Джон Ферни и др. Принципы розничной торговли. Пер. с англ. Сапсиной У.– М.: ЗАО «Олимп – Бизнес», 2008. – 416 с.
5. Снегирева В. Розничный магазин. Управление ассортиментом по товарным категориям. – СПб.: Питер, 2005. – 416 с.
6. Сисоева С.В., Крок Г.Г. Большая книга директора магазина. – СПб.: Питер, 2009. – 432 с.
7. Чкалова О. В. Формирование и развитие розничной торговой сети в мегаполисе: Монография. – Н. Новгород: Издательство Нижегородского госуниверситета им. Н.И. Лобачевского, 2003. – 11 с.
8. Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. 2-qayta ishlangan va to‘Idirilgan nashri. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – 42-178 b.
9. Abdukarimov F.B. Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo‘llari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand: SamISI, 2011, 156-b.
10. Soliev A., Buzrukxonov S. Marketing. Bozorshunoslik. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010, 294-b.
11. Pardayev O.M. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2017, 284-b.
12. Fayziyev E.S. Servis tizimi faoliyati asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand. “Zarafshon”, 2010, 170-b.
13. <https://businessyield.com/ru/e-commerce/retailing/>
14. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaql-ish-kurs-ishi/item/13626-2021-07-08-07-13-32>

**SAN'ATSHUNOSLIK**  
**XORAZM MUSAVVIRLARI IJODIDA PAHLAVON**  
**MAHMUD SIYOMSI.**



**Sobirjon  
SOBIROV**  
  
**Xorazm  
Ma'mun  
akademiyasi  
kichik ilmiy  
xodimi**

**UO'K: 338.2**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada polvon, shoir, po'stindo'z sifatida mashhur Pahlavon Mahmud siymosini yaratgan rassomlarning hayoti va ijodi, yaratgan asarlari tahlil qilinadi.

**Аннотация:** В статье анализируется жизнь и творчество художников, создавших образ Пахлавона Махмуда, известного как борец, поэт и кожевник.

**Annotation:** This article analyzes the life and work of the artists who created the image of Pahlavon Mahmud, who is famous as a wrestler, poet, and tanner.

**Kalit so'zlar:** rassom, portret, grafika, polvon, po'stindo'z, shoir, Hindiston, Eron, Xorazm.

**Ключевые слова:** художник, портрет, графика, борец, кожевник, поэт, Индия, Иран, Хорезм.


**The keywords:** painter, portrait, graphics, wrestler, leather worker, poet, India, Iran, Khorezm.

Pahlavon Mahmudga bo'lgan xalq e'zozi rassomlar tomonidan yaratilgan ijod namunalarida ham aks etgan. Ayniqsa, xorazmlik rassomlar o'z yurtdoshlariga bo'lgan cheksiz hurmati sabab Pahlavon Mahmudni o'zgacha mehr bilan tasvirlashganini ko'rish mumkin. Ma'lumki tarixiy mavzuda asar yaratayotgan har bir rassom, shu jumladan, Pahlavon Mahmud tasvirini chizayotgan musavvir, u yashagan davrni yaxshilab o'rganishi talab qilinadi. Har bir musavvir asar yaratishda shu davr muhiti va urf-odatlari, an'analarini, ayniqsa kiyimlari qanday bo'lganligini o'rganish lozim bo'ladi. Bu borada XX asr o'rtalarida, jamiyat madaniy hayotida yuz berishni boshlagan o'zgarishlar bilan bog'liqlikda rivojlangan bu jarayon bugungi turli avlod rassomlari tamonidan yaratilgan rang-barang badiiy talqinlarni qamrab olganini qayd etish lozim. Ayniqsa, jahon ilm-fanidagi mumtoz siymolardan biriga aylangan allomaning shaxsiyati, serqirra faoliyati va uning zabardast pahlavon bo'lganligi tarixiy janr ustalari uchun keng ijodiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Pahlavon Mahmud fors tilida ijod qilgan. Po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bilan shug'ullangan. Nafaqat Xorazmda, balki Hindiston va Eronda polvon sifatida dong taratgan. Aynan shu sababli ham Pahlavon Mahmud deb atalgan. Fors va turkiy xalqlar adabiyotida Umar Xayyomdan so'ng eng ko'p ruboiy yozgan shoir ham aynan Pahlavon Mahmuddir.

Tarixda ana shunday sifatlarga, ta’rif-u tavsiflarga ega bo‘lgan Pahlavon Mahmud siy whole text is too long to fit in one block, so I will split it into two parts.


Mahmud siy whole text is too long to fit in one block, so I will split it into two parts.

O‘zbekiston xalq rassomi, taniqli rangtasvir ustasi To‘ra Quryozov 1938-yil 24-fevralda Xiva tumani, Juryon qishlog‘ida tug‘ilgan. Ijodkor ilk ijodini kichik hajmdagi portret va




manzaralardan boshlab, keyinchalik ko‘plab yirik tarixiy asarlari yaratdi va san‘at muxlislari hurmatini qozondi. XX asrning 60-yillaridan respublika va xorijiy ko‘rgazmalarda ham o‘z ijodini keng namoyish etib kelmoqda.

1960-yil Benkov nomidagi Respublika rassomchilik bilim yurtini, 1975-yil K.Behzod nomidagi (oldingi A.N.Ostrovskiy nomidagi) Respublika milliy rassomlik va dizayn institutini tugatgan. “T.Quryozov o‘z mehnati faoliyati davomida 1960-1970-yillarda Qoraqalpog‘iston davlat san‘at muzeyida rassom bo‘lib ishlagan. Aynan mana shu yillar To‘ra Quryozovning rassom bo‘lib shakllanishida taniqli rassom, etnograf, arxeolog Igor Saviskiy bilan hamkorligi katta ahamiyat kasb etdi. I.Saviskiyning ko‘plab etnografik, arxeologik ekspeditsiyalarida qatnashishi yosh rassom T.Quryozov ijodida chuqur iz qoldirdi va uning ijodiy tafakkurini boyitdi. 1970-1975-yillarda O‘zbekiston rassomlar uyushmasining Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyati hududiy bo‘limi rahbari lavozimida faoliyat yuritgan. To‘ra Quryozov 1975-yildan boshlab Toshkent shahrida yashab, ijod qilib kelmoqda. Rassomning ko‘plab asarlari orasida P Mahmud siy whole text is too long to fit in one block, so I will split it into two parts.



etnografik, arxeologik ekspeditsiyalarida qatnashishi yosh rassom T.Quryozov ijodida chuqur iz qoldirdi va uning ijodiy tafakkurini boyitdi. 1970-1975-yillarda O‘zbekiston rassomlar uyushmasining Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyati hududiy bo‘limi rahbari lavozimida faoliyat yuritgan. To‘ra Quryozov 1975-yildan boshlab Toshkent shahrida yashab, ijod qilib kelmoqda. Rassomning ko‘plab asarlari orasida P Mahmud siy whole text is too long to fit in one block, so I will split it into two parts.

**Qalandarov Ikrom** ham Xorazmlik rassomlar orasida buyuk ajdodimiz siy whole mahorat bilan tasvirlagan. U 1935-yil 7-yanvarda Xiva shahrida san'atkorlar oilasida tug'ilgan. 2004-yildan O'zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi. 1955-1960-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining "Badiiy grafika" yo'nali shida tahsil olgan. Ustoz sifatida akademiklar Yusuf Yelizarov, Azik Goldrey, Mannon Saidov, Malik Nabiyevlar kabi mashhur rassomlardan kasb sirlarini o'rgandi. Mehnat faoliyati davomida Xorazm davlat pedagogika instituti (hozirgi UrDU) da, O'zbekiston badiiy ishlab chiqarish fondi Urganch filialida faoliyat ko'rsatgan kezlari Xorazm tasviriy san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ikrom Qalandarov bir qancha nufuzli tanlovlardan ishtirokchisi sifatida 2008-yilda "Tasviriy va amaliy san'at" festivali doirasida tashkil qilingan "Xorazm madaniyati kunlari" ko'rgazmasi kumush medali sovrindori. 2015-yilda esa O'zbekiston Badiiy akademiyasi diplomi bilan taqdirlangan.



Rangtasvirchi rassom Ikrom Qalandarov yaratgan tasviriy san'at asarlari janr jihatdan rang barang. U O'zbekiston zaminida tug'ilib, kamolga yetgan o'zining el-yurt oldidagi xizmatlari, halol mehnatlari tufayli obro'-e'tibor qozongan, xalq nazariga tushgan eldoshlarimizning ramziy siymolarini portret janrida ko'plab aks ettirgan bo'lib, asarlarida rassom mo'yqalamining sehrli quvvatini sezish mumkin. Ikrom Qalandarov ko'plab zamondosh portretlarini yaratishdan tashqari buyuk siymolar va Xorazmda yashab ijod qilgan olim va shoirlarning siymolarini yuksak mahorat bilan yaratdi. Shunday asarlaridan biri Pahlavon Mahmud portretidir.

**Shavkat Usmonov** 1941-yil 10-dekabrda Xiva shahrida ziyolilar oilasida tug'ilgan. 1960-1968-yillarda Benkov nomidagi san'at bilim yurtini tugatgan. 1968-1973-yillari esa Toshkent teatr va rassomchilik institutida tahsil olgan. 1988-yildan O'zbekiston badiiy akademiyasi rassomlar uyushmasi a'zosi. O'zbekiston badiiy akademiyasining oltin medali sohibi. Haykaltarosh tomonidan yaratilgan nodir asarlar respublikamizning turli shaharlariga ko'rk bag'ishlab turibdi (2).

San'at sohasida respublikamizda ko'zga ko'ringan, el yurt nazariga tushgan, tom ma'noda madaniyatimiz, san'atimiz rivojiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan taniqli rassom va haykaltarosh Shavkat Usmonov nafaqat Xorazm vohasida, umuman, mamlakatimizda haykaltaroshlik san'atiga munosib hissa

qo'shgan shaxs sanaladi. U hanuzgacha betakror san'atimizning avloddan avlodga o'tishiga, uni yanada rivojlanishiga harakat qilib kelayotir.

Uning ijodiga mansub buyuk ajdodlarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Mirzo Ulugbek, Pahlavon Mahmud siymolari




gavdalangan o'nlab yuksak saviyali mahobatli asarlari mazmun va mohiyati, estetik jihat bilan san'atimiz muxlislarida iliq taassurot qoldirgan. Shunday asarlaridan biri yog'ochdan yasalgan Pahlavon Mahmudning byusti hisoblanadi.

### Rustam Xudayberganov

1946-yil iyun oyida Xorazm viloyati Urganch tumanida tug'ilgan. 1970-yil Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining badiiy grafika fakultetini bitirgan. So'ngra Ukrainadagi Xarkov badiiy san'at institutida tahsil olgan. R.Xudayberganov 1979-yildan buyon nafaqat respublikamiz, shuningdek, xorijdagi

ko'rgazmalarda qatnashib kelmoqda.

1988-yildan Xalqaro rassomlar konfederatsiyasi a'zosi. O'zbekiston Badiiy akademiyasi ijodkor rassomlar uyushmasi a'zosi. R.Xudayberganov asosan portret janrida ishlaydi.



Urganchdagi O'zbekiston zamonaviy san'ati muzevida rassomning "Yoshligim ko'chasi" deb nomlangan rangtasvir asari saqlanmoqda.

Milliy qadriyatlar rassom ijodida yetakchi mavzulardan biri. Milliy qadriyatlar faqat bugungi kunda yana ham qayta tiklanayotganligi uchungina emas, balki, o'ziga bolalikdan buyon aziz va qadrdonligi uchun ham ularga qayta-qayta murojaat etadi. Xiva yaqinida tug'ilib o'sgan rassomning bunday beباho xazinalarni erta anglab yetishi tabiiy, albatta. Bobolardan meros bo'lgan bu qadimiy shahar obidalari, uning xotira yanglig' manzaralari rassom

uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai bo'ldi. Rustam Xudayberganov qayerda yashamasin Xarkovdami, Surxondaryodami yoki Toshkentdami, bu xotiralar silsilasi uni tark etmadidi. Aksincha, ma'lum bir vaqt o'tishi bilan olmos qirralari singari yangicha jilolarda tovlanib, uni o'ziga chorladi. Uning Xorazmda yashab

ijod qilgan qomusiy olimlar va shoirlarni turkum asarlari ana shu bois dunyoga keldi. Pahlavon Mahmud tasviri ana shu mehr namunasida yaratilgan asardir.



правда” gazetalarida bosh rassom, maktabda o‘qituvchi, Ogahiy teatri va Xiva qo‘g‘irchoq teatrida bosh rassom, Xorazmdagi Badiiy akademiya jamg‘armasi raisi kabi lavozimlarda ish faoliyatini davom ettirgan. Talabalik davrida va keyin ham viloyat hamda respublika miqyosida o‘tkazilgan ko‘rgazmalarning faol ishtirokchisi va sovrindori bo‘lgan. Rassom va haykaltarosh Soliy Qodirov hayot va ijodiy faoliyati davomida ko‘plab yutuqlarga erisha olgan haqiqiy ijodkorlardan bo‘lib, bugungi kunda ham ijodiy faoliyatini izchil ravishda davom ettirib kelmoqda. Soliy Qodirov ijodda hech qachon cheklanishni istamagan holda tasviriy san’atning rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik turlarida birdek o‘ziga xos va o‘zgacha uslubda asarlar yaratishga intiladi. Soliy Qodirov serqirra ijodkor

sifatida tanilgan rassomlarimizdan bo‘lib, Pahlavon Mahmud siyemosini grafika yo‘nalishida yaratgan.

**Qosimov Sotimboy** 1953-yil 15-iyunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, To‘rtko‘l tumanida tug‘ilgan. 1972-yilda oilasi bilan birga Xorazm viloyati Urganch tumani Cholish shaharchasiga ko‘chib kelishadi. 1974-yildan Urganch shahridagi Rassomlar ustaxonasida, 1978-yildan Badiiy bezash ustaxonasida rassom sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 1987-yilda o‘tkazilgan “Rassomlar attestatsiyasi” natijasida ijodkorga “1-darajali bezovchi rassom” kategoriyası berilgan. 2005-

yildan Badiiy ijodkorlar uyushmasi a’zosi. 1988-2015-yillar davomida Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘istonning ko‘plab hududlarida badiiy bezash ishlarini olib




borgan. Ijodkor “badiiy kandakorlik” ishlari bilan ham muntazam shug‘ullanib, dekorativ pannolar yaratib keladi. Sotimboy Qosimov ham asosan grafika yo‘nalishida ijod qiladi. U yaratgan Pahlavon Mahmud asari ham grafika yo‘nalishida yaratilgan bo‘lib, unda ajdodimizning pahlavon, shoir, po‘stindo‘z va xivalik ekanligi yaqqol ko‘rinib turadi.



otasi Madamin Atamurodov taniqli rassom Baxtiyor Ro‘zmetovga shogirdlikka beradi. Ustozi bilan birgalikda natyurmort manzara va portretlar chiza boshladi.

1974-yil maktabni tugatib, Toshkentdagagi P.Benkov nomidagi respublika rassomchilik bilim yurtiga o‘qishga kiradi va tasviriy san’at bo‘limida ustozlari Galina Ivanovna Mordvinseva va Vladimir Ivanovich Kuznetsovlardan rangtasvir, chizma tasvir va kompozitsiya bo‘yicha mahorat darslarini olgan.

1980-yil o‘qishni a’lo baholar bilan bitirgan holda yana tug‘ilgan yurtiga kelib, ustozi Baxtiyor Ro‘zmetov bilan birgalikda ijod qiladi.



diplomi bilan taqdirlangan. Ijodkorning ana shunday asarlaridan biri Pahlavon Mahmud asaridir.

**Otayev Polvonnazir Razzoqovich** 1956-yil 14-iyulda Xiva shahrida ziyoli oilada tug‘ilgan. Dastlab Benkov nomidagi respublika rassomchilik bilim yurtida, keyinchalik Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutda tahsil olgan. Rassom yaratgan asarlari asosan amaliy san’atning gilamchilik yo‘nalishida ijod qilgan. Uning yaratgan Pahlavon Mahmud portreti dunyo va yurtimizning ko‘plab muzeylarini bezab turibdi.

**Davron Atamurodov** 1957-yil 8-sentabr kuni Hazorasp tumanida tug‘ilgan. 8-sinfni tugatganda

O‘z ijodiy faoliyati davomida nafaqt Hazorasp tumani, balki viloyat va respublikaning boshqa hududlarida o‘tkazilayotgan badiiy ko‘rgazmalarda qatnashib kelgan.

“Charchagan devlar”, “Norim-norim” kartinalari uchun O‘zbekiston Badiiy akademiyasining maxsus faxriy



**Pavel Kichko** rangtasvirchi, grafik rassom sifatida ko‘plab asarlar yaratgan. Tasavvuri keng, faylasuf ijodkorlardan biri bo‘lib, u nafis qalamtasvir va akvarelda rang-barang asarlar yarata olgan tasviriy san’at ustasi.

Rassom 1960-yil 20-fevralda Qozog‘iston Respublikasining Jambul shahrida tug‘ilgan. Keyinchalik Xorazmga ko‘chib kelib ijodiy faoliyatini davom etdirgan. Pavel Kichko yoshligidan rasm chizishga qiziqqan va Urganch shahridagi viloyat musiqali drama teatri rassomi Lola Abdullayevaning rassomchilik to‘garagiga qatnasha boshlagan va tasviriy san’at sirlarini ustozidan yanada mukammal o‘rganishga harakat qilgan.

1981-yilda P. Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtini, 1987-yilda Toshkent teatr va rassomchilik institutining kitob grafikasi fakultetini tamomlagan.

Rassomning asarlari tasavvurida o‘zgacha uslubda yaratilganligi ham ahamiyatga ega.




Rassom oldin Toshkentda, so‘ngra Urganch shahrida yashab ijod qilgan. O‘zbekiston zamонавиј san’ati muzeyi (oldingi Urganch suratlar galereyasi)da bosh muhofiz, Ogahiy teatrda bosh rassom-dekorator lavozimida ishlagan. Uning asarlari xalq e’tiboriga tushib O‘zbekistondagi Hindiston elchixonasida, Toshkent fotosuratlar uyida, Toshkent markaziy ko‘rgazmalar zalida namoyish etilgan. Asarlari asosida Pahlavon Mahmudning polvon siyemosidagi tasviri ayniqsa ajralib turadi.

**Rahimov Hamro Omanbayevich** 1978-yil 17-noyabrda Yangibozor tumani “Uyg‘ur” qishlog‘ida ziyorolar oilasida tug‘ilgan. 1996-yil Urganch shahridagi 24-son san’at gimnaziyasini tugatgan.


1999-2003-yillarda UrDU pedagogika fakultetining chizmachilik va tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olgan. Keyinchalik 2003-2005-yillarda shu dargohning magistratura bo‘limida muhandislik grafikasi yo‘nalishida davom etdirgan. 2005-yildan boshlab UrDU pedagogika fakulteti texnikaviy va badiiy grafika kafedrasida o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshladi.

2007-yildan O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasining a’zosi.

2008-yilda Toshkent shahridagi markaziy ko‘rgazmalar zalida bo‘lib o‘tgan “Xorazm san’ati va madaniyati” ko‘rgazmasida qatnashib, “**Xorazm manzaralari**” turkum asarlari uchun O‘zbekiston Badiiy akademiyasining **kumush** medali bilan taqdirlangan. Hamro Rahimov Xorazmda yashab ijod qilgan san’atkor va olimlar, sarkardalar, shuningdek zamondoshlari portretlarini yaratib kelmoqda. Ular orasida Pahlavon Mahmud siymosi alohida ajralib turadi (3).




Jumladan: “Erta bahor”, “Yoz yomg‘iridan keyin”, “Kuz manzarasi”, “Kuzgi manzara”, “Qish” kabi kartinalari fikrimizga yorqin misoldir. Rassom tabiat go‘zalligi bilan birga yurtimizning o‘tmishi va tarixini ko‘z o‘ngimizda gavdalantirishda eng muhim manbalardan bo‘lgan tarixiy obidalarni tasvirlagan. Bu holat ayniqsa “Ko‘hna yodgorlik” kabi ijod namunalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Intiluvchan rassom, avvalo, bu ijod namunasini yaratishdan oldin, o‘sha manba haqida chuqur bilim va tasavvurga ega bo‘lishga intilgan holda, u haqida keltirilgan ma’lumotlarni to‘liq o‘rganishga va aynan o‘sha manzara, o‘sha muhitni tomoshabin ko‘z oldida boricha namoyon qilishga harakat qilgani uning tarixiy mavzudagi, shu jumladan, Pahlavon Mahmud portretida aks etgan.



Iste’dodli rassom **Qahramon Madaminov** tabiat go‘zalligini boricha, ortiqcha bezaklarsiz, go‘zal chizgilarda tasvirlashga intiluvchan ijodkorlardan hisoblanadi. Uning asarlarida asosan tabiat manzaralari tasviri o‘rin egallagan.

Rassom biografiyasiga e’tibor qaratsak, u 1981-yilning 29-martida Urganch shahrida tug‘ilgan. 1999-2003-yillarda K.Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutida tahsil olgan. 2003-yil Bolgariya Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasida bo‘lib o‘tgan ko‘rgazma ishtirokchisi. 2004-2006-yillarda rassomchilik va dizayn instituti magistratura bosqichi talabasi. 2006-yil Nukus shahrida bo‘lib o‘tgan Ma’mun



akademiyasining 1000-yilligiga bag‘ishlangan ko‘rgazmada ishtirok etdi. 2007-2010-yillarda Urganch davlat universiteti pedagogika fakulteti texnikaviy va badiiy grafika kafedrasi o‘qituvchisi, 2010-yildan hozirga qadar O‘zbekiston badiiy akademiyasi Xorazm ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internati tasviriy san’at fani o‘qituvchisi bo‘lib ishlab kelmoqda.

Xullas, Xorazm rassomlari ijodidagi Pahlavon Mahmud obrazi bilan bog‘liq izlanishlar va ulardagi tasvir, tarixiy-realistik yondashuvlar, ramziy-poetik, falsafiy yechimlar har birida o‘ziga xos holatda aks etgan. Bularning bari esa jamiyatda tarixiy xotirani tiklash orqali milliy o‘zlikni anglash bo‘lgan intilishning rassomlar ijodida kechayotgan jarayonlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To‘ra Quryozov bilan suhbat. Dala tadqiqotlari. 2017-yil 5-fevral.
2. Shavkat Usmonov bilan suhbat. Dala tadqiqotlari. 2019-yil 17-mart.
3. Hamro Rahimov bilan suhbat. Dala tadqiqotlari. 2023-yil 14-yanvar.

## PEDAGOGIKA

### O'QITUVCHI FAOLIYATIDA KOGNITIV TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



**Charosxon  
SABIROVA**

UrDU pedagogika va  
psixologiya kafedrasi  
dotsenti, p.f.d (PhD)



**Adiba  
G'ANIYEVA**

UriU ijtimoiy-  
gumanitar fanlar va  
tillar kafedrasi stajyor  
o'qituvchisi

**UO'K 520.30**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kognitiv texnologiyalar, o'qituvchi faoliyatida kognitiv texnalogiyalardan foydalanish, bo'lg'usi o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash va ularda shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish haqida fikr bildirilgan.

**Аннотация:** В статье когнитивные технологии, использование когнитивных технологий в педагогической деятельности. Высказано мнение о профессиональной подготовке будущих учителей и развитии их личностных способностей.

**Annotation:** In this article, cognitive technologies, the use of cognitive technologies in teaching activities. An opinion was expressed about the professional training of future teachers and the development of their personal abilities.

**Kalit so'zlar:** kognitiv texnologiyalar, motivatsiya, refleksiv, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim texnologiyasi, kognitiv qiziqish, ijodiy qobiliyat, individual.

**Ключевые слова:** Когнитивные технологии, мотивация, рефлексивность, профессиональная подготовка, образовательная технология, познавательный интерес, творческая способность, личность.

**The keywords:** Cognitive technologies, motivation, reflexive, professional training, educational technology, cognitive interest, creative ability, individual.

Xalqaro miqyosda bo'lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rinn tutadi. Pedagogik jarayon murakkab tizimli hodisadir. Pedagogik jarayonning yuksak ahamiyati shaxsning kamolga yetish jarayonining madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyati bilan bog'liq. Shu munosabat bilan pedagogik jarayonning asosiy o'ziga xos xususiyatlarini tushunish, uning eng

samarali oqimi uchun qanday vositalar kerakligini bilish juda muhimdir. Hozirgi vaqtida zamонавиј та’лим шароитида о‘qитиш усуллари та’лим мақсадларини о‘згартириш, компетенсијага асосланган юндашув асосида курилган янги авлод давлат та’лим стандартини ишлаб чиқиш билан bog‘liq murakkab даврни бoshдан kechirmoqda. Bazaviy o‘quv rejasida alohida fanlarni o‘рганиш учун соатлар qisqartirilganligi sababli ham qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holatlarning barchasi fanlarni o‘qитиш методикаси соҳасида янги педагогик izlanishlarni, та’лим jarayoniga zamонавиј та’лим ва axborot texnologiyalarini ишлаб чиқиш ва joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qитиш ва tarbiyaning innovatsion vositalari, shakl va uslublarini izlashni taqozo etadi. O‘rta kasb-hunar ta’limining асосиј мақсади – o‘z mutaxassisligi bo‘yicha samarali kasbiy faoliyatga qodir, mehnat bozorida raqobatbardosh malakali mutaxassis tayyorlashdan iborat[2]. Ushbu muammoni o‘рганиш билан ko‘plab mahalliy va xorijiy mutaxassislar, pedagog олимлар, psixologlar shug‘ullanadi. Kognitiv psixologiya xorijiy psixologiyaning eng mashhur ilmiy yo‘nalishlaridan biridir. Rus tiliga tarjima qilingan “kognitiv” atamasi kognitiv degan ma’noni anglatadi. Ushbu tadqiqot yo‘nalishi асосан 1960-yillarda shakllangan bo‘lib, uning rivojlanishining birinchi bosqichi natijalari 1967-yilda nashr etilgan V.Nayserning “Kognitiv psixologiya” monografiyasida umumlashtirilib, psixologik fikrning янги yo‘nalishiga nom berdi. R.Solso xuddi shu nom bilan keyinroq nashr etilgan kitobida kognitiv psixologiya odamlarning dunyo haqidagi ma’lumotni qanday qabul qilishini, bu ma’lumotlarning shaxs томонидан qanday ifodalanishini, uning xotirada qanday saqlanib, bilimga аylanishini va bu qanday ekanligini o‘рганади, bilim bizning e’tiborimiz va xatti-harakatlarimizga ta’sir qiladi. Shunday qilib, deyarli barcha kognitiv jarayonlar qamrab олинган hislardan tortib, idrok etish, naqshni aniqlash, xotira, konsepsiyanı shakllantirish, fikrlash, tasavvur qilish. Kognitiv psixologiyaning bir necha o‘n yilliklar davomida ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan асосиј yo‘nalishlari одатда kognitiv tuzilmalarning rivojlanish psixologiyasi muammolari, til va nutq psixologiyasi, kognitiv nazariyalarni ишлаб чиқиш bo‘yicha tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida talabaning kognitiv va ijodiy faoliyatini amalgа oshirish учун та’лим sifatini oshirish, o‘qish vaqtidan samarali foydalanish va o‘quvchilarning reproduktiv faolligi ulushini kamaytirish imkonini beradigan zamонавиј та’лим texnologiyalaridan foydalaniлadi. Zamонавиј та’лим texnologiyalari yoshi va та’лим darajasidan qat’i nazar, individuallashtirish, o‘quv jarayonining masofали va o‘zgaruvchanligi, talabalarning akademik harakatchanligiga qaratilgan. Ta’lim texnologiyasi – bu o‘quv jarayonini loyihalash, amalgа oshirish, baholash, tuzatish va keyinchalik takrorlashning tizimli usuli. Ta’lim muassasalari, xususan, SPEda o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan та’лим педагогик texnologiyalaridan keng foydalaniлadi. Ta’lim jarayoniga zamонавиј та’лим ва axborot texnologiyalarini joriy etish o‘qituvchiga bilimning chuqurligi va mustahkamligini ишлаб чиқиш,

faoliyatning turli sohalarida ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash imkonini beradi, texnologik fikrlashni, o‘z ta’lim, o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda texnologik intizom talablariga qat’iy rioya qilish odatlarini tarbiyalash. (Gap to‘satdan tugab qolgan) Pedagogik texnologiyalarning keng



ko‘lamli qo‘llanilishi o‘qituvchining o‘quv vaqtidan unumli foydalanishi va talabalarning bilim olishida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Fan yo‘nalishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mutaxassislarni an‘anaviy tayyorlash zamonaviy talablardan tobora orqada qolmoqda. Ta’limning asosi o‘quv fanlari emas, balki fikrlash va harakat qilish usullari bo‘lishi kerak. Yuqori saviyada tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassisni nafaqat bo‘shatish, balki uni yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, muayyan ishlab chiqarish muhiti sharoitlariga moslashtirish, mustaqil ravishda o‘qitish bosqichiga ham kiritish zarur. Pedagogik faoliyatda innovatsion usullardan foydalanish tajribasiga asoslanib, ularning ayrim afzalliklarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishning faol usullarini o‘rgatishda yordam beradi.[3] Shaxsiy ijtimoiy faollilikning yuqori darajasini o‘zlashtirish imkoniyatini berish, ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘rganmay qolmaydigan sharoitlarni yaratish, talabalarning ijodiy faolligini rag‘batlantirish, o‘qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirish, fan bo‘yicha nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Hozirgi bosqichda ta’lim, birinchi navbatda, shaxsni rivojlantirishga, uning faolligi va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga, binobarin, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, o‘z-o‘zini nazorat qilish usullaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan. O‘qitishning faol shakllari va usullari, bularning barchasiga qiziqish mavjud bo‘lgandagina erishish mumkin. Kognitiv

qiziqish – bu o‘quv jarayoniga intellektual va hissiy munosabat, o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan intilishi, individual va umumiyl vazifalarni bajarish, o‘qituvchi va boshqa talabalar faoliyatiga qiziqish. Kognitiv faollashtirish – bu maqsadli o‘rganish uchun doimiy motivatsiya jarayonidir. O‘quv jarayonida o‘quvchilarining bilish faolligini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika fanida eng muhim masalalardan biridir, chunki ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarini o‘quv va ijodiy natijalarga erishishga undash ko‘p jihatdan uning yechimiga bog‘liq. Bunday muammolar yechimi pedagog kadrlarning salohiyatini yanada yaxshilash, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, ham ruhan, ham jismonan kuchli bo‘lish deb qaraladi.[4]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagogik jarayon – bu ma’lum maqsadga erishishga qaratilgan va vaziyatning oldindan rejallashtirilgan o‘zgarishiga, o‘qituvchining xususiyatlari va fazilatlarini o‘zgartirishga olib keladigan pedagog va tarbiyachilarining rivojlanayotgan o‘zaro ta’siri bor. Boshqacha aytganda, pedagogik jarayon ijtimoiy tajribaning shaxs sifatlariga singib ketishi jarayonidir. Bu jarayonda pedagogdan ulkan bilim tajriba, malaka talab qilinadi. Xuddi shunday kognitiv-vizual ko‘nikmalar ham vaziyatga oldindan baho berish, muammolarni har tomonlama o‘rganish, ko‘plab ma’lumotlar oqimini o‘z ongida tartibga solish, fikrlari va harakatlarida umumiylukka erisha olish o‘qituvchi uchun zaruriy omil ekan, kognitiv vizual ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘rganish dolzarb bo‘lib qolaveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. Sharq. 1997.
2. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. :TDPU, 2003.
3. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya”.T., TDPU 2007-yil.
4. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. ”Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya.” T., 2013.
5. <http://ziyonet.uz/>
6. <http://pedagog.uz/>
7. <http://edu.uz/>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

**5-6 (3)  
2023-yil, iyun-iyul.**

|                  |              |
|------------------|--------------|
| Bosh muharrir:   | M.Eshmurodov |
| Mas’ul kotib:    | U.Bekimmetov |
| Musahhih:        | J.Sobirov    |
| Texnik muharrir: | M.Kuranbayev |
| Navbatchi:       | J.Sobirov    |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqt: 09:00. Topshirildi: 09:00.

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 8 b.t. Buyurtma №0003.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,  
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22